Italiyalik olimlar A. Galvani va A.Voltalarning elektr tokini kashf etishlari hamda dunyoda birinchi marta 1800 yilda galvanik elementning yasalishi fizika fanining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 1820 yilda daniyalik fizik X. Ersted tokli o‘tkazgichning kompas mili bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishini elektr va magnit hodisalar orasida boglanish borligi bilan tushuntirdi. Shu yillarda A. Amper zaryadlangan zarralarning tartibli harakati tufayli paydo bo‘luvchi elektr toki bilan barcha magnit hodisalari bog‘liq ekanligi to‘g‘risida xulosaga keldi va tajriba asosida tokli o‘tkazgichlar orasidagi vujudga keluvchi o‘zaro ta’sir kuchini ifodalovchi qonunni ixtiro qildi (Amper qonuni). 1831 yilda M. Faradey elektromagnit induksiya hodisasini ochdi va elektromagnit maydon tushunchasi haqidagi ta’limotni yaratdi. Metallarning elektr o‘tkazuvchanligini o‘rganish Om krnunining (1826), moddalarning issiqlik xususiyatlarini o‘rganish — issiqlik sig‘imi qonunining yaratilishiga olib keldi.

Tabiatning barcha hodisalarini bir butun qilib bog‘lovchi energiyaning saqlanish va aylanish qonunining ochilishi tabiatshunoslikda, jumladan, fizikaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. 19-asr o‘rtalariga kelib tajriba orqali issiklik miqdori bilan bajarilgan ish miqdorining o‘zaro qiyosiy tengligi isbotlandi va shu asosda issiqlik energiyaning maxsus turi ekanligi aniqlandi. Energiyaning saklanish va aylanish qonuni issiqlik hodisalari nazariyasining asosiy qonuni bo‘lib, u termodinamikannsh birinchi bosh qonuni deb ataladi. Bu qonunni Yu.R.Mayer ta’riflagan, nemis fizigi G.Gelmgots aniqroq shaklga keltirgan (1874). Termodinamikaning rivojlanishida S. Karno, R. Kpauzius, U.Tomson, E.Klapeyron va D.I.A/yendeleyevlarning xizmatlari katta bo‘ldi. S. Karno issiqlikning mexanik xdrakatga aylanishini aniqladi, R.Klauzius, U.



Tomson issiklik nazariyasining asosiy qonuni — termodinamikaning ikkinchi bosh qonunini ta’rifladilar, R. Boyl, E. Mariott, J.GeyLyussak, B. Klapeyron ideal gazning xrlat tenglamasini aniqladilar. D.I.Mendeleyev uni barcha gazlar uchun umumlashtirdi va h.k. Termodinamika bilan birga issiqlikning molekulyar kinetik nazariyasi rivojlanib bordi. A. Eynshteyn, polyak fizigi M. Smoluxovskiy va fransuz fizigi J. Perrenlar broun harakati atom hamda molekulalarning issiklik harakati ekanligini isbotlab, molekulyar kinetik nazariya asoslari bo’lgan broun harakatining miqsoriy nazariyasini yaratdilar. Bu esa, o’z navbatida, statistik mexanikaning to’la tan olinishiga olib keldi. J.K.Maksvell kiritgan ehtimollik xarakteriga ega bo’lgan statistik tushunchalar asosida gazlardagi molekulalar tezligi, erkin yugurish uzunligi, vaqt birligi ichidagi to’qnashuvlar soni va boshqa kattaliklarning o’rtacha qiymatlarini topishga yo’l ochildi, traning molekulalarning o’rtacha kinetik energiyasiga bog’likligi ko’rsatildi. Materiyaning kinetik nazariyasi taraqqiy etishi L. Boltsman tomonidan statistik mexanika — Boltsman statistikasishtt yaratilishiga olib keldi. 19-asrning 2yarmida J.K.Maksvell elektromagnit hodisalarning elektromagnit maydon tushunchasiga asoslangan yangi nazariyasini va uni ifodalovchi tegishli tenglamalar tizimini yaratdi. U tabiatda elektromagnit to’lqinlarning mavjudligini, ularning anik, xususiyatlari — bosimi, difraksiyasi, interferensiyasi, tarqalish tezligi, qutblanishi va h.k. borligini aniqladi. Maksvell nazariyasining eng muhim natijasi elektromagnit to’lqinlarning tarqalish tezligi yoruglik tezligiga teng bo’lgan qiymatga ega ekanligi to’g’risidagi xulosa hisoblandi. Maksvell nazariyasidan yorug’likning elektromagnit xususiyatiga ega ekanligi kelib chikdi. G.Ge/i

Shunday qilib, 19-asr fizikasi 2 bo’limdan — jismlar fizikasi va maydon fizikasidan iborat bo’ldi. Jismlar fizikasi asosida molekulyar kinetik nazariya qabul qilingan bo’lsa, maydon fizikasila elektromagnit maydon nazariyasi asosiy rol o’ynadi.

Klassik fizika modda, vaqt, fazo, massa, energiya va h.k. haqidagi maxsus tasavvurlar, tushunchalar, qonunlar, prinsiplardan tashkil topgan. U klassik mexanika, klassik statistika, klassik termodinamika, klassik elektrodinamika va boshqa bo’limlarga bo’linadi. Klassik mexanikada harakat qonunlari — Nyuton qonunlaridan iborat. Moddiy nuqta, mutlaq qattiq jism, tutash mux, itlar tushunchalari muhim rol o’ynaydi. Bularga moye tarzda moddiy nuqta mexanikasi, mutlaq qattiq jism mexanikasi, tutash muhit mexanikasi mavjud.

Ko’p amaliy hollarda qoniqarli natijalar beradigan klassik fizika katta tezliklar va mikroob’yektlar bilan bog’liq hodisalarni to’g’ri tushuntirishga ojizlik qildi. Shunday hodisalar qatoriga qattiq jismlarning issiqlik sig’imi, atom



tizimlarining tuzilishi va ulardagi o'zgarishlar xarakteri, elementar zarralarning o'zaro ta'siri hamda bir-biriga aylanishi, mikrotizimlardagi energetik holatlarning uzlukli o'zgarishi, massaning tezlikka bog'liqligi va boshqa masalalar kiradi. Fizikaning yangi taraqqiyoti yuqoridagiga o'xshash hodisalarni ham to'g'ri tushuntirib bera oladigan yangi, noklassik tasavvurlarga olib keldi. Bunday tasavvurlarga asoslangan yangi fizika maydon kvant nazariyasi va nisbiylik nazariyasidan iborat.

Fizikaning klassik va noklassik fizikaga ajratilishi shartlidir. Galiley — Nyuton mexanikasi, Faradey — Maksvell elektrodinamikasi, Boltsman — Gibbs statistikasini, odatda, klassik fizikaga, maydon kvant nazariyasi va nisbiylik nazariyasini hozirgi zamon fizikasiga kiritishadi. Tarixiy jihatdan bu haqiqatan ham shunday. Ammo klassik fizika bilan hozirgi zamon fizikasini bir-biriga qarshi qo'yish asossizdir. Yangi texnika, kosmosni egallash kabi sohalarda klassik fizikadan keng foydalanib muhim yutuqlarga erishilmokda. Maksvell tomonidan elektromagnit qodisalarni o'rganish jarayonlari uning klassik elektrodinamika<sup>ni</sup> yaratishi bilan yakunlandi. 1897 yilda J. Tomsonning elektron zarrasining ochishi bilan fizika rivojida yangi davr boshlandi.





FIZIKA FANIDAN DARS O'TISH JARAYONIDA ZAMONAVIY  
METODLARDAN FOYDALANISHNING MUHIM  
JIHATLARI

Ergashova Dilnoza Asqarali qizi

*Kosonsoy tuman 1-son kasb hunar maktabi*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqolada fizika fanidan dars o'tish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanishning muhim jihatlari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Fizika, jarayon, dars, o'qituvchi, o'quvchi, pedagogik, nazariya, tajriba, zamonaviy.*

Fizika — tabiat haqidagi umumiy fan; materiyaning tuzilishi, shakli, xossalari va uning harakatlari hamda o'zaro ta'sirlarining umumiy xususiyatlarini o'rganadi. Bu xususiyatlar barcha moddiy tizimlarga xos. Turli va aniq moddiy tizimlarda materiya shakllarining murakkablashgan o'zaro ta'siriga tegishli maxsus krnuniyatlarni kimyo, geologiya, biologiya singari ayrim tabiiy fanlar o'rganadi. Binobarin, fizika fani bilan boshqa tabiiy fanlar orasida bog'lanish bor. Ular orasidagi chegaralar nisbiy bo'lib, vaqt o'tishi bilan turlicha o'zgarib boraveradi. Fizika fani texnikaning nazariy poydevorini tashkil qiladi. Fizikaning rivojlanishida kishilik jamiyatining rivojlanishi, tarixiy davrlarning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shartsharoitlari ma'lum ahamiyatga egadir.

Fizika fani eksperimental va nazariy fizikaga bo'linadi. Eksperimental fizika tajribalar asosida yangi ma'lumotlar oladi va qabul qilingan qonunlarni tekshiradi. Nazariy fizika tabiat qonunlarini ta'riflaydi, o'rganiladigan hodisalarni tushuntiradi va yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalarni oldindan aytib beradi. Amal i y fizika ham mavjud (mas, amaliy optika yoki amaliy akustika).

O'rganilayotgan ob'yektlar va materiallarning harakat shakllariga qarab, fizika fani bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan elementar zarralar fizikasi, yadro fizikasi, atom va molekulalar fizikasi, gaz va suyuqliklar fizikasi, qattiq jismlar fizikasi, plazma fizikasi bo'limlaridan tashkil topgan. O'rganilayotgan jarayonlarga va materiyaning harakat shakllariga qarab, fizika moddiy nuqta va qattiq jism mexanikasi, termodinamika va statistik fizika, elektrodinamika, kvant mexanika, maydon kvant nazariyasini o'z ichiga oladi.

Fizikaning tarixiy rivojlanishi. Fizika tarixini 3 davrga bo'lib o'rganish mumkin: 1) qad. zamondan 17-asrgacha bo'lgan davr; 2) 17-asrdan 19-asr oxirigacha bo'lgan davr. Bu davrdagi fizika fani, odatda, klassik fizika nomi bilan



yuritiladi; 3) 19-asr oxiridan hozirgi paytgacha bo'lgan davr. Hozirgi zamon fizikasi (yoki eng yangi fizika) shu davrga mansub. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Metodika ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiqqan va ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalariga suyanib rivojlanadi. Bir muallifning ilg'or pedagogik ish tajribasini hamma pedagoglar aynan qo'llayolmaydilar, Bunda natijalar har kimda har xil bo'ladi. Oldindan belgilangan maqsadga har bir o'qituvchi o'z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor o'qituvchilargina yaxshi natijalarga erishailar. Texnologiya metodikalardan o'zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarining turg'unligi ko'plab "agar"lar (agar o'qituvchi iste'dodli bo'lsa, agar bolalar qobiliyatli bo'lsa, agar yaxshi ota-onalar bo'lsa ...) yo'qligi bilan farq qiladi.



Ya'ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan hamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo'llash mumkinligi bilan juda ham individual bo'lgan metoddan farq qiladi. Shu bilan bir qatorda metodika pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion va ilmiy salohiyatni rivojlantirish yo'lida harakat shiddat bilan ortib borayotgan bir davrda yosh avlodning tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy, innovatsion, ilmiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, o'quv jarayonlariga yangi-yangi o'qitish metodlari, texnologiyalari va innovatsiyalarni tatbiq qilish asosiy burchimizdir.

Ta'lim, bir so'z bilan aytganda, mamlakatning kelajakdagi istiqbolini ta'minlaydigan yosh avlodni tarbiyalash, savodli qilishdir. Turli ilmiy tadqiqot metodlarini fizika fanini o'qitish jarayonida qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, olingan bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

STEAM texnologiyasi haqida. STEAM ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida beshta - fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. STEAM ta'limi deganda amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi. STEAM texnologiyasida foydalaniladigan metodlardan biri Evristik ta'lim metodi hisoblanadi. Evristik degan so'zning ma'nosi savol javobga asosan "topaman" demakdir. Evristik metod bilan o'qitish maktablarda asosan XIX asr boshlaridan boshlab qo'llanila boshladi. Fizikada mashg'ulotlar qiziqarli bo'lishi uchun, bu mashg'ulotlardagi har bir masala yoki topshiriq so'zma so'z quruq yodlash uchun emas, balki ularning oliy faoliyatlarini ishga soladigan xarakteri bo'lishi kerak. Amerikalik olim D. Poya evristik ta'lim metodi to'g'risida shunday degan edi: "Evristikani maqsadi yangiliklarga olib boruvchi metod va qoidalarni izlash demakdir". U evristik metod mohiyatini quyidagidek izchillikda tuzilgan reja orqali amalga oshirishni tavsiya qiladi:

1. Masala yoki amaliy topshiriqning qo'yilishini tushunish.
2. Masalaning yechish rejasini tuzish.
3. Tuzilgan rejani amalga oshirish.
4. Orqaga nazar tashlash (hosil qilingan yechimni tekshirish). Bu rejani amalga oshirish jarayonida o'qituvchilar quyidagi savollarga javob topadilar.



1. Masalada nima noma'lum?
2. Masalada nimalar ma'lum?
3. Masalaning sharti nimalardan iborat?
4. Ilgari shunga o'xshagan masalalar yechilganmi?
5. Agar shunga o'xshagan masalalar yechilgan bo'lsa, undan foydalanib qo'yilayotgan masalani yecha oladimi? Albatta yuqoridagi reja-sxema o'quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyatlarini shakllantiradi, ammo bu reja sxema o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi birdan bir yo'l bo'la olmaydi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, umumta'lim maktablarida ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish, ta'lim jarayonlariga STEAM texnologiyasini keng joriy etish, tahsil olayotgan yosh avlodning nazariy bilimlarinigina oshiribgina qolmasdan, ularni tezroq amaliy va kasbiy jarayonlarga kirishga undaydi. Bu esa mamlakatimiz zamonaviy ta'limining yutuqlaridan biridir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
2. Ishmuhamedov R.J., Yo'ldoshev M. Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T.: - Nihol nashriyoti, 2016
3. Berdiyeva O.B., Mirsaburov M. Matematika fanini o'qitish metodikasi moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua. - Termiz-2020.
4. <https://pm.piima.uz/steam-ta-lim/>



## FIZIKA O'QITISHDA SAMARADORLIKKA ERISHISH OMILLARI

Xoliqova Ziyoda Mirzaqammarovna

*Rishton tumani 2- sonli kasb xunar maktabi fizika o'qtuvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada fizika o'qitish samaradorligini oshirish yuzasidan ba'zi bir takliflar keltirilgan. Fizika yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavrlarlarni sifatli kadr qilib tayyorlash zamon talabidir. Fizika o'qitish samaradorligining oshishi jamiyatning jadal rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun ham fizika fanining o'qitilishi va uning samaradorligini belgilovchi omillar bugungi hamma zamonda ham dolzarbligini yo'qotmaydi.*

**Kalit so'zlar:** *fizika o'qitish, ilmiy dunyoqarash, tanishish, reproduksiya, transformatsiya, fizika o'qtuvchisining uslubiy tayyorgarligi*

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va uning uzviy davomi bo'lgan ta'limni rivojlantirish dasturi bugungi kunda hayot sinovidan o'tib, o'z natijasini berayotgani, xalqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etilayotgani rost. Oldimizda turgan maqsadlarimizga erishishda yaratilgan barcha imkoniyatlar keng e'tirof etilyotgan bir paytda, biz, eng avvalo, yaratib berilayotgan sharoitlardan unumli foydalanayotgan muallim va murabbiylarning og'ir va mas'uliyatli mehnatining o'rni va ahamiyatini chuqur anglab, ularni munosib baholash barchamizning diqqat markazida turishini yaxshi tushunamiz. Davlat umummilliy dasturining asosiy maqsadi va vazifalaridan biri - ta'lim muassasalarini malakali o'qtuvchilar bilan ta'minlash, ularning salohiyatini oshirish, o'qtuvchilar tayyorlash tizimini takomillashtirishdir. Mazkur tamoyilga e'tibor qaratadigan bo'lsak o'qtuvchilar uchun katta mas'uliyat, talablar, vazifalar va ishonch mavjudligini ko'ramiz. Bu masalaga davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umumiy masaladir. Yurtimizda boshlangan islohotlar jarayonini izchillik bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga yetkazish muammolarining asosiy yechimlaridan biri - malakali, fidoyi bakalavr darajasiga ega bo'lgan o'qtuvchilarni tayyorlashdir. Bunda ularga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: bakalavr darajasidagi o'qtuvchining o'z ishiga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish, ularda tashabbuskorlik-pedagogik faoliyatga bo'lgan ijodiy munosabatni shakllantirish shaxsiy javobgarligini oshirish; ularning o'z sohasida kompetentli, ya'ni o'z ishining ustasi bo'lishi, o'z sohasi bo'yicha bilimlarni har



tomonlama chuqur bilishi zarurligi. Fizika fani o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tayanch fan, fizika darslari esa uning vositasi hisoblanadi. O'quvchining dunyoqarashi, tabiat haqidagi tushunchalari fizika fani qonunlarini o'rganish jarayonida amalga oshirilsa, ikkinchidan, bu jarayonda ularga bilim va tarbiya berishda psixo-pedagogik asoslarni hosil qilish davomida amalga oshiriladi. Dunyoqarashni shakllantirishda o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qilinadi. Bunda dars o'tish jarayonida turli metodlardan, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llanish ko'zda tutilgan. Ta'lim berish tizimida qo'lga kiritiladigan natija va uning tarmoqlari turlicha sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi mumkin. Ularni aniqlash, tahlil qilish va o'lchash uchun har xil krit eriyalar ishlab chiqilgan. O'quvchilarning bilish ko'nikmasining rivojlanishi bilan bog'liq holda V.P.Bespalko bilim xizmati natijasining to'rt darajasini aniqlagan va ularning ahamiyatini quyidagicha yoritib bergan:

I daraja - tanishish: o'quvchilar boshqa shunga o'xshash obyektlar qatorida ushbu obyektни anglashi, farqlashi, ularni o'zlashtirish qobiliyatlariga qarab farqlanadi. Tanishish darajasidagi o'zlashtirish ko'pincha o'rganish obyekt haqidagi umumiy qarashlar, fikirlash bo'lsa, suhbat turidagi javoblar «ha - yo'q», «yoki» bilan chegaralanadi.

II daraja - reproduksiya: bu darajada o'quvchilar o'rganish obyekt bilan bog'liq harakatlarni og'zaki bayon qilib berish imkoniyati darajasidagi asosiy tushunchalarni o'zlashtiradi, turli harakatlar va har xil tadbirlarni tahlil qiladi.

III daraja - to'liq o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar: bunda o'quvchilarning xizmati ba'zi bir sinf ishlarini yechish uchun o'zlashtirilgan ma'lumotlarni amaliyotda qo'llanish va obyektiv yangi ma'lumotlarni egallash ko'nikmalariga ega bo'lishi.

IV daraja - transformatsiya: u o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakasini qo'llay bilish orqali turlicha qiyinchilikdagi vazifalarni yecha oladigan ma'lumotlarni egallashni ko'zda tutadi.

O'quv-tarbiya jarayonining yutug'i o'quvchilarning har bir darsga faol qatnashishi bo'lib hisoblanadi. Faollik bo'lsa o'quvchilar o'zlari qiziqib, darslarni qoldirmay, o'qituvchining aytganlarini tinglash, yangiliklar bilan tanishish, ma'lumotlarni eshitish va mavzularni o'z vaqtida tushunib borishga intiladi.

O'quvchilarda bunday xususiyatlarni hosil qilish uchun o'qituvchidan kuchli bilim, izlanish va katta mahorat talab qilinadi.

O'quvchilarning darsga qatnashishini yaxshilash uchun sinalgan usullarning biri:

- darsni muammoviy o'qitish usuli;
- darsning nostandart formasi;



- ilmiy izlanish usuli;
- darslik ustida ishlash;
- masalalar yechish;
- tajriba va topshiriqlarni bajarish.

Ma'lumki oliy ta'lim tizimining dastlabki bosqichi bakalavriat hisoblanib, u yoki bu mutaxassisning uzluksiz ta'lim tizimining o'rta umumiy ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (O'MKHT) o'quv muassasalarida muvaffaqiyatli dars berishlariga kafolat beradi. Jumladan, agar fizika o'qituvchisi sifatida qaraydigan bo'lsak, undan fizikaning umum nazariy, umum kasbiy va mutaxassislik fanlari siklida aks etgan talablarga to'laqonli javob berishi talab etiladi.

Fizika nafaqat fundamental, balki tajribali fan bo'lgani tufayli fizika o'qituvchisi ham mazkur sohalar yuzasidan iloji boricha keng qamrovli nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, har qanday fizika o'qituvchisidan fizikaning zamonaviy yutiq va kashfiyotlaridan chuqur hamda mustahkam bilimga ega bo'lishi talab etiladi va ushbu jihat zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki jamiyat doim taraqqiyotda bo'lib, uning ko'p qirrali jihatlaridan biri bo'lgan fan-texnika ham uzluksiz taraqqiy etib boradi. Bu degani, ta'limot uchun zarur hisoblangan ilmiy bilim hamda o'quv, bilishga doir ma'lumotlar hajmi ham tinimsiz holda ko'payib boradi. Belgilangan vaqt moboynda jadal suratlar bilan o'sib borayotgan ma'lumotlarni ta'lim jarayonida muvofiqlashgan holda mutanosib aks ettirish uslubiy muammo hisoblanib, uni amalda joriy etilishi uchun fizika o'qituvchisidan samarali uslubiy mahoratga ega bo'lish darajasini taqozo etadi. Yuqorida takidlaganimizdek, bakalavr darajasini olgan fizika o'qituvchisining mehnat faoliyati keng qamrovlidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan yana bir jihatga qaytamiz. U ham bo'lsa, o'quv bilish uchun zarur hisoblangan ma'lumotlar hajmi ortishi bilan yuzaga kelgan uslubiy muammoni muvaffaqiyatli (ijobiy) hal etilishi fizikadan mustaqil ta'limning jarayonini ilmiy asosda tashkil etilishi bilan bog'liq. Ushbu jihat ta'limning uzluksiz xarakterda bo'lishini yana bir bor tasdiqlaydi. Fizika o'qitish uslubiyotining samarali bo'lishi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak fizikani o'quvchiga qayta o'rgatish emas, balki o'rgatishni uzil - kesil nihoyasiga to'liq yetkazmaslikni, kelajakda uni yana davom etdirishni afzal ko'radi. Demak, fizika o'qituvchisining uslubiy tayyorgarligi va o'qitish uslubiyotining samaradorligida ushbu jihat ustuvor hisoblanadi. Globallashgan sharoitda o'rganiladigan o'quv uslubiy fanlarning o'zaro aloqadorligi (hamkorligi) o'ta zarur hisoblanadi. Bugungi kunda ayni bir fan doirasida istalgan bir voqea yoki hodisani to'laqonli



tushuntirib berish imkoniyati ko'p hollarda o'z kuchini yo'qotmoqda. Shu bois integrativ yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida muhim rol o'ynamoqda.

Tabiatshunoslik fanining yuzaga kelishi konsepsiyasi ham ushbu yondashuv bilan tushuntiriladi desak to'g'ri bo'ladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bakalavrlarning fizikadan chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari bilan birga ular fizika o'qitish metodikasining o'ziga xos jihatlari, ya'ni o'qitishda axborot hamda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni rejalashtirish, bakalavrlarning o'quvchi yoshlar bilan ishlashi jarayonida ularning yetarli darajada bilim olishlariga qiziqish uyg'otish yo'llarini aniqlash, yoshlarga mustaqil bilim olishning samarali yo'llarini o'rgatish, shuningdek, fizik bilimlarni nazorat qilish va hisobga olish kabi ko'plab masalalar uslubiy tayyorgarlikda o'z aksini topishi lozim. Ushbu maqolada bakalavr darajasidagi fizika o'qituvchisining uslubiy tayyorgarligidagi o'ziga xosliklarning faqatgina ba'zi masalalariga e'tibor berildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'aniyev "Fizika" 1,2,3-qismlar. T.:O'qituvchi 2008
2. N.Sadriddinov "Fizika o'qitish uslubi asoslari" O'quv qo'llanma-T.: O'zbekiston 2006
3. Jo'rayev M. "Fizika o'qitishda statistik g'oyalar" Metodik qo'llanma-T.: O'qituvchi, 1996
4. M.X.O'lmasova "Fizika" 3-qism. T.: O'qituvchi 2003
5. Yarmatov R.B. Bo'lajak o'qituvchilar shaxsining tarbiyasi va rivojida ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligi darajasi haqida.// "Xalq ta'limi" jurnali". Toshkent, 2011. № 5. - B.84-87. (13.00.01. №17)
6. Sodiqova Sh.M., To'raxonov F. Fizikani o'qitishda pedagogic dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi// Uslubiy qo'llanma. -Toshkent, TDTU, 2012. -60 b.





## BAʼZI FIZIK HODISALARNING TAHLILI

Xoliqova Ziyoda Mirzaqammarovna

*Rishton tumani 2- sonli kasb xunar maktabi fizika o'qtuvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fizik hodisalar, ularning turlari va fizikaviy tahlili yoritib berilgan. Bundan tashqari tabiatda uchraydigan fizik hodisalarning o'ziga hos tomonlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *fizika, hodisa, tahlil, chaqmoq, elektr.*

Har qanday masala doimiy o'zgarishdadir. Ba'zi jismlar harakatlanmoqda, boshqalari uchinchi, to'rtinchisi esa aylanmoqda. Ko'p yillar oldin faylasuf Heraklit "hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaradi" degan iborani ishlatgan. Olimlar hatto bunday o'zgarishlar uchun maxsus atamaga ega - bularning hammasi hodisalar. Jismoniy hodisalar harakat qiladigan barcha narsalarni o'z ichiga oladi.

Fizik hodisalarning ba'zi turlarini ko'rib chiqamiz.

**Termal.** Bular harorat ta'sirida ba'zi jismlar aylana boshlaganda sodir bo'ladigan hodisalar (shakli, hajmi va holati o'zgarishi). Fizik hodisalarga misol: iliq bahor quyoshi ta'sirida muzlar eriydi va suyuqlikka aylanadi, sovuq ob-havoning boshlanishi bilan ko'lmaklar muzlashadi, qaynoq suv bug 'bo'lib qoladi.

**Mexanik.** Ushbu hodisalar tananing qolgan qismiga nisbatan pozitsiyasini o'zgartirishni tavsiflaydi. Misollar: soat yuradi, to'p sakraydi, daraxt chayqaladi, qalam yozadi, suv oqadi. Ularning barchasi harakatda.

**Elektr.** Ushbu hodisalarning tabiati uning nomini to'liq oqalaydi. "Elektr" so'zi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, bu erda "elektron" "kehribar" degan ma'noni anglatadi. Misol juda oddiy va ehtimol ko'pchilikka tanish. Yünlü kozokni keskin olib tashlash bilan kichkina yoriq eshitiladi. Agar siz xonadagi yorug'likni o'chirish orqali buni qilsangiz, uchqunlarni ko'rishingiz mumkin.

**Yorug'lik.** Yorug'lik bilan bog'liq bo'lgan hodisada qatnashadigan tanaga nurli deyiladi. Jismoniy hodisalarga misol sifatida biz quyosh tizimimizning taniqli yulduzini - Quyoshni va boshqa har qanday yulduzni, chiroqni yoki hatto o't o'chiruvchisini keltirishimiz mumkin.

**Ovoz.** Tovush tarqalishi, to'siq bilan to'qnashganda tovush to'lqinlarining xatti-harakati, shuningdek, qandaydir tarzda tovush bilan bog'liq bo'lgan boshqa hodisalar bu fizik hodisalarga tegishli.

**Optik.** Ular yorug'lik tufayli. Shunday qilib, masalan, odam va hayvonlar ko'rishlari mumkin, chunki yorug'lik bor. Bu guruh shuningdek yorug'likning



tarqalishi va sinishi, uni ob'ektlardan aks ettirish va turli vositalar orqali o'tish hodisalarini o'z ichiga oladi.

Endi siz jismoniy hodisalar nima ekanligini bilasiz. Biroq, tabiiy va jismoniy hodisalar o'rtasida ma'lum bir farq borligini tushunish kerak. Shunday qilib, tabiiy hodisa bilan bir vaqtning o'zida bir nechta jismoniy hodisalar ro'y beradi. Masalan, chaqmoq yerga urganda, quyidagi hodisalar yuz beradi: magnit, tovush, elektr, issiqlik va yorug'lik.

Bizni cheksiz xilma-xil narsalar va hodisalar dunyosi qurshab oldi.

U doimo o'zgarib turadi. Organlar bilan sodir bo'ladigan har qanday o'zgarishlar hodisalar deyiladi. Yulduzlarning paydo bo'lishi, kun va tunning o'zgarishi, muzning erishi, daraxtlardagi kurtaklarning shishishi, momaqaldiroq paytida chaqmoqning chaqnashi va boshqalar - bular hammasi tabiiy hodisalar.

Eslatib o'tamiz, tanalar moddalardan iborat. E'tibor bering, ba'zi bir hodisalarda tanalarning moddalari o'zgarmaydi, boshqalarida esa ular o'zgaradi. Masalan, agar siz bir qog'oz varag'ini yarmida yirtib qo'ysangiz, unda sodir bo'lgan o'zgarishlarga qaramay, qog'oz qog'oz bo'lib qoladi. Agar siz qog'ozni yoqsangiz, u kulga va tutunga aylanadi. Fenomen O'lchamlari, jismlarning shakli, moddalarning holati o'zgarishi mumkin, ammo moddalar bir xil bo'lib qoladi, boshqalarga aylanmaydi, fizik hodisalar deyiladi (suvning bug'lanishi, elektr lampochkaning porlashi, musiqiy asbobning torlarining ovozi va boshqalar).

Jismoniy hodisalar juda xilma-xil. Ular orasida ajralib turadi mexanik, termal, elektr, yorug'lik va boshq.

Eslatib o'tamiz, bulutlar osmonda qanday suzadi, samolyot uchadi, mashina minadi, olma tushadi, trolleybusda yuradi va hokazo. Ushbu barcha hodisalarda narsalar (jismlar) harakatlanadi. Tananing boshqa jismlarga nisbatan pozitsiyasining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan fenomenalar deyiladi mexanik (yunon tilidan tarjima qilingan "mehan" degan ma'noni anglatadi) mashina, qurol).

Ko'p hodisalar issiqlik va sovuqning o'zgarishi tufayli yuzaga keladi. Bunday holda, tanalarning o'ziga xos xususiyatlari o'zgaradi. Ular shakli, o'lchami o'zgaradi, bu organlarning holati o'zgaradi. Masalan, qizdirilganda muz suvga, suv esa bug'ga aylanadi; harorat pasayganda bug 'suvga, suv muzga aylanadi. Tanalarni isitish va sovutish bilan bog'liq hodisalar deyiladi termal.

Fizik hodisa: moddaning bir holatdan ikkinchisiga o'tishi. Agar siz bir tomchi suvni muzlatib qo'ysangiz, muz paydo bo'ladi.

Ko'rib chiqaylik elektr hodisalar. "Elektr" so'zi yunoncha "elektron" so'zidan kelib chiqqan - kehribar. Yodingizdagi kozokingizni tezda echib olsangiz, engil



yoriq eshitasiz. To'liq zulmatda ham xuddi shunday qilgandan so'ng, siz uchqunlarni ko'rasiz. Bu eng oddiy elektr hodisasi.

Boshqa elektr hodisasini boshdan kechirish uchun quyidagi tajribani bajaring.

Kichik qog'oz bo'laklarini torting, ularni stol yuzasiga qo'ying. Sochingizni plastik taroq bilan tozalang va quriting va uni qog'oz bo'laklariga keltiring. Ishqalanishdan keyin engil narsalarni jalb qilishga qodir bo'lgan jismlar chaqiriladi elektrlashtirilgan. Momaqaldiroq paytida chaqmoq, auroralar, qog'oz va sintetik matolarni elektrlashtirish - bu barcha elektr hodisalaridir. Telefon, radio, televizor va turli xil maishiy texnikalarning ishlashi inson tomonidan elektr hodisalarini ishlatishga misoldir.

Yorug'lik bilan bog'liq bo'lgan hodisalarga yorug'lik deyiladi. Yorug'lik Quyosh, yulduzlar, lampalar va ba'zi jonzoqlar, masalan, olovli qo'ng'izlar tomonidan chiqariladi. Bunday jismlar deyiladi nurli

Ko'zning to'r pardasiga yorug'lik ta'sirini ko'ramiz. Mutlaq zulmatda biz ko'ra olmaymiz.

O'zlari yorug'lik chiqarmaydigan ob'ektlar (masalan, daraxtlar, o'tlar, ushbu kitob sahifalari va boshqalar), ular qandaydir nurli jismdan yorug'lik olganda va uni uning yuzasida aks ettirganlarida ko'rinadi.

Biz tez-tez tungi yorituvchi deb ataydigan oy aslida quyosh nurlarining aks ettiruvchi turidir. Tabiatdagi jismoniy hodisalarni o'rganar ekan, odam ularni kundalik hayotda, kundalik hayotda ishlatishni o'rgandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. A bdumalikov. Nazariy fizika kursi. «Voris nashriyot» MChJ Toshkent - 2006
2. T.To'xtapo'lato'v. Amaliy fizika, Toshkent 2003 y.
3. Q. To'rayev. Olam yog'dusi yoki qiziqarli fizika. Toshkent. 2011
4. I. Xayrulla. Fizika o'qitishning nazariy masalalari 1-qism. Toshkent. 2010



## FIZIKA O'QITISHDA SAMARADORLIKKA ERISHISH OMILLARI

Xoshimova Dilshodaxon Maxammadsharifovna

*Yozyovon tumani 2- son kasb xunar maktabi fizika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada fizika o'qitish samaradorligini oshirish yuzasidan ba'zi bir takliflar keltirilgan. Fizika yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavrlarlarni sifatli kadr qilib tayyorlash zamon talabidir. Fizika o'qitish samaradorligining oshishi jamiyatning jadal rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun ham fizika fanining o'qitilishi va uning samaradorligini belgilovchi omillar bugungi hamma zamonda ham dolzarbligini yo'qotmaydi.*

**Kalit so'zlar:** *fizika o'qitish, ilmiy dunyoqarash, tanishish, reproduksiya, transformatsiya, fizika o'qituvchisining uslubiy tayyorgarligi.*

Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz. Yurtimizda boshlangan islohotlar jarayonini izchillik bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga yetkazish muammolarining asosiy yechimlaridan biri - malakali, fidoyi bakalavr darajasiga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlashdir. Bunda ularga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: bakalavr darajasidagi o'qituvchining o'z ishiga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish, ularda tashabbuskorlik-pedagogik faoliyatga bo'lgan ijodiy munosabatni shakllantirish shaxsiy javobgarligini oshirish; ularning o'z sohasida kompetentli, ya'ni o'z ishining ustasi bo'lishi, o'z sohasi bo'yicha bilimlarni har tomonlama chuqur bilishi zarurligi. Fizika fani o'qituvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tayanch fan, fizika darslari esa uning vositasi hisoblanadi.

O'qituvchining dunyoqarashi, tabiat haqidagi tushunchalari fizika fani qonunlarini o'rganish jarayonida amalga oshirilsa, ikkinchidan, bu jarayonda ularga bilim va tarbiya berishda psixo-pedagogik asoslarni hosil qilish davomida amalga oshiriladi. Dunyoqarashni shakllantirishda o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qilinadi. Bunda dars o'tish jarayonida turli metodlardan, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llanish ko'zda tutilgan. Ta'lim berish tizimida qo'lga kiritiladigan natija va uning tarmoqlari turlicha sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi mumkin. Ularni aniqlash, tahlil qilish va o'lchash uchun har xil krit eriyalar ishlab chiqilgan. O'qituvchilarning bilish ko'nikmasining



rivojlanishi bilan bog'liq holda V.P.Bespalko bilim xizmati natijasining to'rt darajasini aniqlagan va ularning ahamiyatini quyidagicha yoritib bergan:

I daraja - tanishish: o'quvchilar boshqa shunga o'xshash obyektlar qatorida ushbu obyektни anglashi, farqlashi, ularni o'zlashtirish qobiliyatlariga qarab farqlanadi. Tanishish darajasidagi o'zlashtirish ko'pincha o'rganish obyekti haqidagi umumiy qarashlar, fikirlash bo'lsa, suhbat turidagi javoblar «ha - yo'q», «yoki» bilan chegaralanadi.

II daraja - reproduksiya: bu darajada o'quvchilar o'rganish obyekti bilan bog'liq harakatlarni og'zaki bayon qilib berish imkoniyati darajasidagi asosiy tushunchalarni o'zlashtiradi, turli harakatlar va har xil tadbirlarni tahlil qiladi.

III daraja - to'liq o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar: bunda o'quvchilarning xizmati ba'zi bir sinf ishlarini yechish uchun o'zlashtirilgan ma'lumotlarni amaliyotda qo'llanish va obyektiv yangi ma'lumotlarni egallash ko'nikmalariga ega bo'lishi.

IV daraja - transformatsiya: u o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakasini qo'llay bilish orqali turlicha qiyinchilikdagi vazifalarni yecha oladigan ma'lumotlarni egallashni ko'zda tutadi.

O'quv-tarbiya jarayonining yutug'i o'quvchilarning har bir darsga faol qatnashishi bo'lib hisoblanadi. Faollik bo'lsa o'quvchilar o'zlari qiziqib, darslarni qoldirmay, o'qituvchining aytganlarini tinglash, yangiliklar bilan tanishish, ma'lumotlarni eshitish va mavzularni o'z vaqtida tushunib borishga intiladi.

O'quvchilarda bunday xususiyatlarni hosil qilish uchun o'qituvchidan kuchli bilim, izlanish va katta mahorat talab qilinadi.

O'quvchilarning darsga qatnashishini yaxshilash uchun sinalgan usullarning biri:

- darsni muammoviy o'qitish usuli;
- darsning nostandart formasi;
- ilmiy izlanish usuli;
- darslik ustida ishlash;
- masalalar yechish;
- tajriba va topshiriqlarni bajarish.

Ma'lumki oliy ta'lim tizimining dastlabki bosqichi bakalavriat hisoblanib, u yoki bu mutaxassisning uzluksiz ta'lim tizimining o'rta umumiy ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (O'MKHT) o'quv muassasalarida muvaffaqiyatli dars berishlariga kafolat beradi. Jumladan, agar fizika o'qituvchisi sifatida qaraydigan bo'lsak, undan fizikaning umum nazariy, umum kasbiy va mutaxassislik fanlari siklida aks etgan talablarga to'laqonli javob berishi talab etiladi.



Fizika nafaqat fundamental, balki tajribali fan bo'lgani tufayli fizika o'qituvchisi ham mazkur sohalar yuzasidan iloji boricha keng qamrovli nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, har qanday fizika o'qituvchisidan fizikaning zamonaviy yutiq va kashfiyotlaridan chuqur hamda mustahkam bilimga ega bo'lishi talab etiladi va ushbu jihat zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki jamiyat doim taraqqiyotda bo'lib, uning ko'p qirrali jihatlaridan biri bo'lgan fan-texnika ham uzluksiz taraqqiy etib boradi. Bu degani, ta'limot uchun zarur hisoblangan ilmiy bilim hamda o'quv, bilishga doir ma'lumotlar hajmi ham tinimsiz holda ko'payib boradi. Belgilangan vaqt moboynda jadal suratlar bilan o'sib borayotgan ma'lumotlarni ta'lim jarayonida muvofiqlashgan holda mutanosib aks ettirish uslubiy muammo hisoblanib, uni amalda joriy etilishi uchun fizika o'qituvchisidan samarali uslubiy mahoratga ega bo'lish darajasini taqozo etadi. Yuqorida takidlaganimizdek, bakalavr darajasini olgan fizika o'qituvchisining mehnat faoliyati keng qamrovlidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan yana bir jihatga qaytamiz. U ham bo'lsa, o'quv bilish uchun zarur hisoblangan ma'lumotlar hajmi ortishi bilan yuzaga kelgan uslubiy muammoni muvaffaqiyatli (ijobiy) hal etilishi fizikadan mustaqil ta'limning jarayonini ilmiy asosda tashkil etilishi bilan bog'liq. Ushbu jihat ta'limning uzluksiz xarakterda bo'lishini yana bir bor tasdiqlaydi. Fizika o'qitish uslubiyotining samarali bo'lishi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak fizikani o'quvchiga qayta o'rgatish emas, balki o'rgatishni uzil - kesil nihoyasiga to'liq yetkazmaslikni, kelajakda uni yana davom etdirishni afzal ko'radi. Demak, fizika o'qituvchisining uslubiy tayyorgarligi va o'qitish uslubiyotining samaradorligida ushbu jihat ustuvor hisoblanadi. Globallashgan sharoitda o'rganiladigan o'quv uslubiy fanlarning o'zaro aloqadorligi (hamkorligi) o'ta zarur hisoblanadi. Bugungi kunda ayni bir fan doirasida istalgan bir voqea yoki hodisani to'laqonli tushuntirib berish imkoniyati ko'p hollarda o'z kuchini yo'qotmoqda. Shu bois integrativ yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida muhim rol o'ynamoqda.

Tabiatshunoslik fanining yuzaga kelishi konsepsiyasi ham ushbu yondashuv bilan tushuntiriladi desak to'g'ri bo'ladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bakalavrlarning fizikadan chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari bilan birga ular fizika o'qitish metodikasining o'ziga xos jihatlari, ya'ni o'qitishda axborot hamda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni rejalashtirish, bakalavrlarning o'quvchi yoshlar bilan ishlashi jarayonida ularning yetarli darajada bilim olishlariga qiziqish uyg'otish yo'llarini aniqlash, yoshlarga mustaqil bilim olishning samarali yo'llarini o'rgatish, shuningdek, fizik bilimlarni nazorat qilish va hisobga olish kabi ko'plab masalalar uslubiy tayyorgarlikda o'z



aksini topishi lozim. Ushbu maqolada bakalavr darajasidagi fizika o'qituvchisining uslubiy tayyorgarligidagi o'ziga xosliklarning faqatgina ba'zi masalalariga e'tibor berildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'aniyev "Fizika" 1,2,3-qismlar. T.:O'qituvchi 2008
2. N.Sadriddinov "Fizika o'qitish uslubi asoslari" O'quv qo'llanma-T.: O'zbekiston 2006
3. Jo'rayev M. "Fizika o'qitishda statistik g'oyalar" Metodik qo'llanma-T.: O'qituvchi, 1996
4. M.X.O'lmasova "Fizika" 3-qism. T.: O'qituvchi 2003
5. Yarmatov R.B. Bo'lajak o'qituvchilar shaxsining tarbiyasi va rivojida ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligi darajasi haqida.// "Xalq ta'limi" jurnali". Toshkent, 2011. № 5. - B.84-87. (13.00.01. №17)
6. Sodiqova Sh.M., To'raxonov F. Fizikani o'qitishda pedagogic dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi// Uslubiy qo'llanma. -Toshkent, TDTU, 2012. -60 b.



FIZIKADAN EKSPERIMENTAL MASHG'ULOTLARNI BAJARISHDA  
O'QUVCHILARDA AMALIY KO'NIKMA VA MALAKALARNI  
SHAKLLANTIRISH

Meliboyeva Shaxnoza Murotovna

*Dang'ara 1- son kasb xunar maktabi fizika*

**Annotatsiya:** *Maqolada ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi tomonlar faoliyatlarining psixologik-pedagogik jihatlarini fizikadan eksperimental mashg'ulotlarni o'tkazish misolida qarab chiqilgan. O'quv-tarbiya jarayonining yutug'i o'quvchilarning har bir darsga faol qatnashishi bo'lib hisoblanadi. Faollik bo'lsa o'quvchilar o'zlari qiziqib, darslarni qoldirmay, o'qituvchining aytganlarini tinglash, yangiliklar bilan tanishish, ma'lumotlarni eshitish va mavzularni o'z vaqtida tushunib borishga intiladi.*

**Kalit so'zlar:** *fizik eksperiment, bilim darajasi, ko'nikma, malaka, kompetensiya, o'zlashtirish darajalari, statistik tahlil.*

## KIRISH

Fizika umumta'lim kursining tarkibi va mazmunini psixologik-pedagogik jihatlarini tahlil qilishda, dastlab biz mazkur kursning maqsad va vazifalari aniqlashtirib olishimiz lozim. Biroq fizika umumta'limning muhim bir kursi bo'lishiga qaramay, unda yagona o'quv predmeti emasligini, u umumta'limning bir qismi ekanligini e'tiborga olsak, u holda fizikani o'qitishning maqsad va vazifalari ham, umumta'lim muassasalarida nazarga olingan maqsad va vazifalari bilan belgilanishini tushinish qiyin emas.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogik jarayoniga dialektik nuqtai nazarida qaralganda, unda "ta'lim-tarbiya beruvchi" va "ta'lim - tarbiya oluvchi" bo'lgan ikki tomonlar o'rtasidagi faoliyatidan iborat bir butunlikni ko'ramiz [1-3]. Ta'lim jarayonida "ta'lim-tarbiya beruvchi" va "ta'lim - tarbiya oluvchi" tomonlar faoliyatlarining maqsadga yo'naltirilgan va uyg'unlashgan holda tashkil etilishi, predmet bo'yicha bilimlarni o'zlashtirilishi hamda ularda zaruriy malaka va ko'nikmalarni shakllantirilishga qaratilganligi bilan muhim sanaladi. Ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchiga berilayotgan bilimlarning mohiyatini hayotiy muhimligini ochib berilishida, jumladan ularda fizikaga ehtiyojni qiziqishtirishni shakllantirish yuzasidan motivlarni vujudga keltirishi, o'quv materialni yaxshi anglanishini ta'minlaydi.

O'qituvchi har bir o'quvchining bilimlarni qabul qilish xususiyatini va bilimlarni xotirasida saqlay olish qobiliyatini va shunga ko'ra to'plagan bilim,





ko'nikma va malakalarining turi (nazariy bilim, ularni amaliyotga qo'llay olish, laboratoriya mashg'ulotlarini mustaqil bajara olish darajasi va izlanuvchanligi ) va hajmidan xabardor bo'lishi asosida o'qituvchi o'quvchiga topshiriq va ko'rsatmalarni berishni rejalashtiradi. Bu hol, o'z navbatida, o'quvchi va ta'lim beruvchi orasidagi muhim munosabatlarda o'zaro ishonch hamda ularda fanga bo'lgan qiziqtirish muhiti shakllanadi. Shuning uchun ham o'quvchi va o'qituvchi orasidagi hamkorlik deyiluvchi didaktik tamoyil o'qitishni samarali kechishini ta'minlashda muhim omil sanaladi. Didaktikada bilimlarni o'zlashtirishni uchta turli darajaga ajratadi: birinchi daraja - qabul qilish, tushunish va esda saqlab qolish, ikkinchi daraja - olingan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish, uchinchi daraja - olingan bilimlarni notanish bo'lgan yangi vaziyatlarda qo'llay olish. O'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirishni yuqori darajasiga chiqarish uchun bugungi kunda o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llanilmoqda [4; 5].

Ma'lumki bugungi kunda ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning ko'pchiligi kelajakda ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat ko'rsatadilar. Shu bois, o'quv muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassislarning texnikaning asosi sanalmish fizikadan eksperimental mashg'ulotlarida o'quv jihozlaridan foydalanish bo'yicha (bilim, ko'nikma va malakalarini) kompetensiyalarni o'zlashtirishi ularda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda muhim omil sanaladi [6].

Pedagogik tadqiqotlarda ko'rsatishicha, berilgan bilim, ta'lim oluvchining o'zlashtirishi uchun uni kamida 2-3 marotaba, fikriy faoliyatlari zaif bolalarda esa, undan ham ko'proq topshiriq va mashqlar berish orqali takrorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Takrorlash natijasida ma'lum jarayon yuzasidan o'quvchida shakllanayotgan ilmiy tushuncha va bilimlar miqdoriy o'zgarishlarni o'tib so'ngra aniq sifatiy tus oladi va ma'lum ma'noda, o'quvchi ongida "o'yg'onish" jarayoni yuzaga keladi. Insonning bilish faoliyati jarayonida, uning sezgi organlari tomonidan axborotlar qayd qilinib, so'ngra u olingan axborot va ma'lumotlarni mushohada va tahlil qilish orqali solishtiradi. Oqibatda ular yaxshi anglanilish natijasida mustahkam bilimga aylanadi. Sinfdagi barcha o'quvchi bir xil fikrlay olmasligi bois, ularning o'zlashtira olish qobiliyatlari ham bir xil bo'lmasligi tabiiy. Binobarin, pedagog ta'lim oluvchining imkoniyatini hamda o'quvchining yoshiga mos fizilogik xususiyatlarni inobatga olgan holda o'quv jarayonini rejalashtiradi.

Olib borilgan pedagogik tajribalarda sinfdagi o'quvchilarga eksperimental topshiriq berilganda, aksariyat ularning ko'pchiligi, masalan, dinamometr yordamida og'irlik kuchini o'lchay olsada, ammo ularda ishqalanish yoki Arximed



kuchini (bu kuchlarning tabiati to'g'risidagi bilimlar shakllangan bo'lishiga qaramay) aniqlash ko'nikmasi yaxshi shakllanmaganligini guvohida bo'lamiz. Buning sababi, o'qitishda o'quvchidagi erishilgan fundamental bilimlarni amaliyotga qo'llashda, asbob va o'quv jihozlardan amaliyotda foydalanish "kompetensiya" darajasiga olib chiqilmaganligidadir.

O'z tajribamizdan kelib chiqib, o'quvchida fanga oid bo'lgan, ya'ni tajribani o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lchash, asboblardan amaliyotda foydalana olish va xulosalar chiqarish kompetensiyasi shakllantirish muammosini Arximed kuchini aniqlash misolida keltiramiz.

Arximed kuchini aniqlash uchun zarur bo'lgan jihozlar: dinamometr, suyuqlik solinadigan idish (silindr shaklida), metall jism va suyuqlik (suv).

Ishni bajarishning ketma-ketligi:

1. Dinamometrغا jismni iling va uning og'irligini havoda o'lchang. Dinamometr ko'rsatgan qiymatni  $F_1 = \dots$  deb yozib oling.

2. Dinamometrغا ilingan jismni suyuqlikka tushiring. (Bunda jism suyuqlikka to'liq botgan holda bo'lsin, ammo jism idish tubiga tegmasin). Jism suyuqlik ichida turganda dinamometr ko'rsatgan qiymat  $F_2 = \dots$  ni ham qayd qiling.

3.  $F_1 - F_2$  kuchlar farqi Arximed kuchining qiymatini beradi. O'lchangan natijalarga ko'ra jismga ta'sir qilgan Arximed kuchini hisoblang.

Yuqorida keltirilgan algoritm asosida o'quvchi tajribani 2-3 marta takroriy bajarganda unda tajribani o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lchash, asboblardan amaliyotda foydalana olish va xulosalar chiqarish kompetensiyasi samarali shakllanadi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Chirchiq shahridagi 10-, 15- umumta'lim maktablarida olib borilgan pedagogik tadqiqot ishining tajriba va nazorat guruhlardagi natijalar 1- jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Arximed kuchini aniqlash bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarning natijalari

Baho ko'rsatkichlari Guruhlar

Tajriba guruhi 64 nafar o'quvchi Nazorat guruhi 62 nafar o'quvchi

Asoslovchi tajriba Ta'kidlovchi tajriba Asoslovchi tajriba Ta'kidlovchi tajriba

5 6 10 7 8

4 16 23 16 19

3 31 28 28 23



2 13 3 11 12

1- jadvaldagi tajriba va nazorat guruhleri bo'yicha qayd etilgan natijalar asosida tajriba-sinov ishlarining ilmiy-pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligi va samaradorligini o'rganish maqsadida matematik-statistik tahlil amalga oshirildi. Statistik tahlil uchun Student-Fisher metodi tanlandi [7]. Tajriba guruhida o'zlashtirish ko'rsatgichi 20 % oshganligi kuzatildi.

Pedagogik amaliyot vaqtida o'quvchilarda elektr asboblari bilan ishlashga bo'lgan qiziqish bo'lsada, biroq aksariyat hollarda o'quvchilar, elektr zanjirini yig'ishda, elektr o'lchov asboblariidan foydalanishda amaliy bilim va ko'nikmalarning yetarlicha shakllanmaganligining guvohi bo'lamiz. Bu vaziyatdan chiqish uchun dastlab o'quvchi uchun eng oddiy elektr zanjiri sxemasi tanlash ma'qul bo'ladi. O'quvchilarga elektr zanjirdagi elementlar to'g'risida nazariy (zanjirni ulash qoidalari to'g'risida) tushunchalar berilgandan so'ng ular dastlab berilgan sxema asosida elektr zanjirni yig'ish ishini bajaradi va keyingi bosqichda o'lchov ishlarni amalga oshiradi. O'quvchining amaliy faoliyatini o'qituvchi tomonidan kuzatilishi va uning o'zlashtirishiga ko'ra, elektr zanjiriga boshqa elementlar qo'shib borish yo'li bilan elektr zanjirining ko'rinishi murakkablashtirib boriladi. Har qanday o'quv jihozi yoki o'lchov asboblari orqali zanjirning fizik parametrlarini o'lchash ishini bajarish uchun ma'lum mantiqiy ketma-ketlikda ishni ta'minlay oladigan algoritm asosida tashkil etilsa, nazarda tutilgan maqsadga erishish oson kechishi pedagogik tajribada ko'rinadi.

### **XULOSA**

1. O'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro bog'liqligi ta'minlangan tartibli va mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etilgan o'qitish metodi joriy etiliishi, o'qitish jarayonining bosh vazifalaridan bo'lgan - ta'limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalariga qat'iy amal qilishni ta'minlaydi.

2. Ta'lim jarayonida bilishning nazariy va empirik metodlarining birligi prinsipi etib, o'qitishda fizikadan nazariy va amaliy bilimlarni optimal o'yg'unligi asosida tashkil etilgan barcha amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar tomonidan erishilgan bilimlar, amaliy ko'nikmalar va malakalarning shakllanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

3. O'quvchilarning o'z faoliyatlarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning bilish qobiliyatini faollashtirish, dars samaradorligini oshirish, mustaqil ishlash va mantiqiy fikrlashga o'rgatish masalalari, yangi pedagogik qarashlar, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida amalga oshirishni taqazo etadi.



FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:

1. Выготский Л.С., Психология: учеб.пособие / Л.С.Выготские.-М.: Апрель Пресс; М.: ЭКСМО-Пресс, 2002.
Fizikadan masalalar echish jarayonida o`quvchilarning mantiqiy fikrlashlari kengayadi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Fizik hodisalarning tub mohiyatini kengroq tushunadilar, fizikadagi qonunlarning amalda qo`llanilishini chuqurroq anglaydilar. Ko`pgina fizik o`lchov asboblarning vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsiplari bilan tanishadilar, ular bilan ishlash ko`nikma va malakalariga ega bo`ladilar. Shuningdek, masalalar o`quvchilarda mehnatsevarlik, jur`atlilik, iroda va xarakterni tarbiyalaydi.

Ko`pgina metodik adabiyotlarning tahliliga ko`ra, mantiqiy xulosalar, matematik amallar va fizikadagi qonunlar hamda metodlarga asoslangan holda yoki eksperiment yordamida yechiladigan muammo, odatda fizik masala deyiladi. Fizik masalada qo`yilgan muammoni hal etish, masala yechishdan iboratdir.

#### Sifat masalalar

Fizik qonunlarga, fizik formulalarga tayangan holda, mantiqiy fikrlash orqali hal qilinadigan masalalar sifat masalalar deyiladi. Bunday tipdagi masalalarda arifmetik hisoblash ishlari bajarilmaydi.

Sifat masalalarning metodik afzalliklari ko`pdir. Fizik qonunlarga asoslangan, mantiqiy xulosalar chiqarishdan iborat bo`lgan bu masalalarni echish metodi, fikrlashning ajoyib maktabi bo`lib xizmat qiladi. Sifat masalalar o`quvchilarga fizik hodisalar va ularning qonuniyatlarini aniq tushuntirib beradi, nazariy bilimlarni amalda qo`llashga o`rgatadi, hisoblash masalalariga nisbatan to`g`ri munosabatni tarbiyalaydi, har qanday masalani echishni, uning fizik mazmunini tahlil qilishdan boshlashga o`rgatadi. Darsda o`tilgan materialni mustahkamlash maqsadida sifatga oid masalalar beriladi. Fizikaning gidrodinamika bo`limida asosan sifat masalalar echilishi bizga ma`lum. Bu bo`limda miqdoriy masalalar deyarli echilmaydi. Sifat masalalar tematikasi, mazmuni va murakkabligi jihatdan xilma-xildir, ya`ni sifatga oid sodda va murakkab masalalar bo`ladi. Sifat masalalarning namunalari va ularni echish metodlari adabiyotlarda to`liq keltirilgan.

#### Eksperimental masalalar

Nazariyani amaliyot bilan bog`lashning eng samarali usullaridan biri eksperimental masalalar echishdir. Eksperimental masalalarning xarakterli xususiyati shundaki, ularni echishda laboratoriya yoki demonstratsion eksperimentlardan foydalaniladi. Eksperimental masalalarni echish jarayonida o`quvchilarning faolligi va mustaqilligi oshadi. Chunki ular masala echish uchun kerakli ma`lumotlarni darslikdan, masalalar to`plamidan tayyor holda olmasdan, balki o`zlari bajaradigan fizik o`lchashlardan oladilar. Eksperimental





masalalarning yana bir afzalligi shundaki, bu masalalarni etarlicha fikrlamasdan turib echib bo'lmaydi. Ya'ni tajribada sodir bo'ladigan hodisalarni o'quvchilar keng muhokama qilib olishlari kerak. Chunki eksperimental masalalarda, laboratoriya ishlaridagidek nazariya berilmaydi, ishni bajarish tartibi ko'rsatilmaydi. Kerakli asbob-uskunalar, materiallar berilib, topilishi kerak bo'lgan ma'lumot so'ralishi bilan kifoyalanadi. Yuqorida aytganimizdek o'quvchilar qator fikr va mulohazalardan, eksperimentda qanday fizik hodisa yotganini, qanday fizik qonun ifodalanayotganligini bilib oladilar. Va nihoyat, eksperimental masalada topilishi kerak bo'lgan fizik kattalik uchun oxirgi ifodani keltirib chiqaradilar. Oxirgi ifodani tahlil qilib, masalani echish uchun kerakli kattaliklarni bevosita o'lchash yo'li bilan oladilar. Aytilganlarni quyidagi sodda eksperimental masalada ko'raylik:

Masshtabli chizg'ich, shtangensirkul va sekundomerdan foydalanib, shtativga mahkamlangan matematik mayatnikning tebranish davrini aniqlang.

Masalani yechish. O'quvchilar fikrlash yordamida mayatnikning tebranish davri uchun  $T=2$  formulani yozadilar ( $g = 9,8 \text{ m/s}^2$  – erkin tushish tezlanishi). Bu erda mayatnikning uzunligi ekanligini esga oladilar. Mayatnikning  $l_m$  uzunligini masshtabli chizg'ich, sharchaning  $D$  diametrini esa shtangensirkul yordamida o'lchaydilar. Tajriba yordamida mayatnikning  $n$  marta tebranishi uchun ketgan vaqtni bir necha marta o'lchab, ularning o'rtacha qiymati olinadi va  $T$  formulaga ko'ra mayatnikning tebranish davri aniqlanadi. So'ngra o'lchashlar natijasida aniqlangan tebranish davri bilan nazariy hisoblab topilgan davr taqqoslanib, tegishli xulosalar chiqariladi. Umuman olganda, eksperimental masalalarni echishga o'quvchilarning qiziqishlari katta bo'ladi. O'qituvchi fizika kabineti sharoitidan kelib chiqib, o'quvchilar bilan birgalikda eksperimental masalalarni echishi maqsadga muvofiqdir. Echish metodlari batafsil yoritilgan eksperimental masalalarni [19] adabiyotdan olish mumkin. O'qituvchilar ba'zi laboratoriya ishlarini va masalalar to'plamlaridagi masalalarni eksperimental masala qilib berishlari, yoki ijodkor o'qituvchilar o'zlari eksperimental masalalar tuzib, o'quvchilarga echish uchun tavsiya qilishlari mumkin.

### **Grafik masalalar**

Grafik masalalarning umumta'lim va politexnik ahamiyati kattadir. Grafik masalalarni echish jarayonida o'quvchilar fizika fani asoslarini chuqur o'zlashtiradilar. Darsda grafik masalalarni echish jarayonida hamda uy vazifalarini mustaqil bajarish jarayonida o'quvchilar fizika va matematika fanlarining o'zaro bog'liqliklarini amalda ko'radilar.

Grafik masalalar ham, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Fizika kursining barcha bo'limlarida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan grafik



masalalar bor. Eng sodda holda ikkita fizik kattaliklarning (P,V; P,T; V,T) bogʻlanish grafiklaridan iborat boʻlgan masalalar grafik masalalar deyiladi.

Grafik baʼzi hollarda masalaning shartida beriladi, baʼzi hollarda grafiklarni masala shartiga tayanib olingan natijalar asosida yasash kerak boʻladi. Grafik masalalarni echishning algoritmi quyidagicha: fizik kattaliklar orasidagi bogʻlanish grafigi berilgan boʻlsa, grafikni sinchiklab oʻqib tushunib, alohida qismdagi bogʻlanishning xarakterini oʻrganish lozim. CHizmadagi masshtabdan foydalanib, grafikdan izlanayotgan kattaliklarning absissa va ordinata oʻqlaridagi qiymatlarini topish kerak. Bogʻlanish grafigi berilmagan hollarda masalaning shartiga yoki masaladan olingan natijaga koʻra grafik yasaladi. Buning uchun koordinata oʻqlari chiziladi, ularda har bir fizik kattalikka mos keluvchi maʼlum masshtablar tanlanadi, kerak boʻlsa jadvallar tuziladi, shundan keyin koordinata oʻqlari joylashgan tekislikka tegishli absissa va ordinata oʻqlariga mos nuqtalar qoʻyiladi. Bu nuqtalarni birlashtirib, fizik kattaliklar orasidagi bogʻlanish grafigi yasaladi va uni tahlil qilib xulosalar chiqariladi. Fizikani oʻqitishda grafik metodining ahamiyatini hamda grafikga tegishli mashq va masalalarni oʻqib bilish mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa qilib Gettengen universitetining professori G.N.Lixtenberg aytganidek: “Kim-dan-kim men faqat fizikani bilaman desa, bilinki u fizikani ham bilmaydi”,-degan fikri juda qoʻl keladi. Haqiqiy bilimli inson, u olimmi, yoki oʻqituvchi oʻz bilimini tor doiradagina oshirmay, balki keng sohani qamrab olib amalga oshiradi. Bugungi talabalarimizga esa bu narsa biroz yetishmaydi. Ularning fikrlash doiralari ancha tor boʻlib, maʼlum bir fanlar boʻyicha cheklangan bilimlarga egadir va, mustaqil fikirlash koʻnikma va malakalari anchagina past darajada. Oʻqituvchi va oʻquvchi – talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida boʻlib, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgandir, bunda oʻqituvchi talaba – oʻquvchilarning bilim saviyasi, guruh saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak boʻladi, bular oʻqituvchi va talaba – oʻquvchilarga bogʻliq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. «Ta'lim va taraqqiyot» jurnali. 1999 yil, 4-maxsus son



2. Razumovskiy R.G «O'rta maktabda fizika o'qitish metodikasi»
3. Tulchiniskiy M.YE. «O'rta maktabda sifatga doir masalalar»
4. Reznikov L.I. «Fizika o'qitishda grafik metoddan foydalanish»
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVIDA XALQARO MUNOSABATLARI

Boltaboyev Yursunali Mamadaliyevich

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Amir Temur davlatining tashkil topishi, qonunchiligi, tashqi siyosati va diplomatiyasi, davlat va harbiy boshqaruvda tutgan siyosati hamda strategiyasi doirasidagi ayrim masalalar tahlil etilgan. Shu bilan birga, maqolada Temuriylarning xalqaro munosabatlarni tashkil etishi, yagona markazlashgan siyosiy tartibni yo'lga qo'yish doirasida olib borgan islohotlari yoritilgan. Maqola fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarimizda buyuk bobokalonimizning deyarli butun Osiyo mintaqasida olib borgan siyosati, uning davlatni adolatli idora etish borasidagi mahoratidan o'rnak olgan holda, buyuk ajdodimiz shon-shavkatini ko'z o'ngimizda yana bir qadar yuksaltirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Temur tuzuklari, Movarounnahr, harbiy faoliyat, davlat, boshqaruv, iqtisod, adolat, diplomatiya, siyosat.*

Xalqaro munosabatlarda Amir Temur davlatining rolini ko'rib chiqar ekanmiz, davlat, davlatchilik mohiyatida muayyan bir makon va jamiyatda mavjud turli imkoniyatlarni shu yerlik xalq manfaati yo'lida yuzaga chiqaruvchi tashkilotchilik yotganini eslatib o'tish g'oyatda muhimdir. Zero, davlat asoslari, davlatchilik har bir jamiyat va xalq “boshiga bir marta bitilgan bo'ladi”. Shu ma'noda o'zbek davlatchiligi miloddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi yarmidan o'z tarixini boshlab to Amir Temur davlatimiz tepasiga kelgunga qadar deyarli 2100 yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgandi. Bu ulkan davr ichida davlatimiz boshqaruviga turli sulolalar kelib ketdi. Ularning faoliyati turli zamonlarda, turli ob'ektiv-sub'ektiv shart-sharoitlarda turlicha kechdi.

XIV asrning 50- 60- yillarida Movarounnahrda feodal tarqoqlik g'oyatda kuchayib, sinfiy kurash yanada keskinlashadi. Mamlakatdagi har bir viloyat alohida hukmdorlikka ajralib, ular o'rtasida nizo kuchayib ketadi va qonli urushlarga aylanadi. Siyosiy parokandalik o'zaro urush va janjallar iqtisodiy tanglikka sabab bo'lib, mamlakat aholisini, ayniqsa dehqonlar xo'jaligini xonavayron qilgan edi. Buning ustiga Sharqiy Turkiston va Yettisuvda tashkil topgan Mug'iliston amirlari Movarounnahrni bosib olishga harakat qilardilar. Bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talab qaytadilar.

Mo'g'iliston amirlarining vayronagarchilik yurishlariga qarshi kurash boshlanib ketadi. Mug'illar istibdodi va zulmga qarshi xalq harakati boshlanadi. Mana shunday ichki o'zaro urushlar qizigan, Mug'illar zulmiga qarshi



mehnatkash xalq harakatlari boshlangan bir davrda qisqa vaqt ichida katta imperiyani vujudga keltirgan sohibqiron Amir Temur siyosat maydoniga dastlabki qadamlarni qo‘ydi.

XIV asrning 60- yillarida Movarounnahrda siyosiy va iqtisodiy vaziyat nihoyatda og‘irlashib ketadi. Feodal tarqoqlikning kuchayishi, ichki o‘zaro urushlarning uzluksiz davom etishi va tashqi dushman hujumlarining avj olishidan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari zarbaga uchrab, aholi og‘ir tanglikni boshidan kechirmoqda edi. Bundan savdogarlar, hunarmandlar

va dehqonlar g‘oyatda norozi edilar. Aholining bunday tabaqalari orasida mavjud og‘ir ahvoldan qutulish, mamlakatni birlashtirish va kuchli bir davlat tashkil etish harakati kuchayadi.

Temur o‘z zamonining bunday talabini yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham u o‘z faoliyatining dastlabki boskichida barcha harakatni Movarounnahrda markazlashgan mustaqil davlat tuzishga qaratadi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u ruhoniylar bilan bir qatorda shaharning savdogar

va hunarmand tabaqalariga suyanadi. Bu boradagi amaliy ishni Balx shahriga joylashib olgan raqibi Husaynga qarshi yurishdan boshlaydi. 1370- yilda Temur yaxshi qurolangan qo‘shini bilan Balxni qamal qiladi va katta talafotlar berib, shaharni egallaydi. Movarounnahrning hukmdori Amir Husayn o‘ldiriladi.

Bu voqealardan so‘ng mamlakatda Temurning siyosiy mavqei kuchayib ketadi. Chunki endi Movarounnahrda uning uchun kuchli raqib qolmagan edi.

Shu yili Balxda qo‘shin boshliqlarining yig‘ilgan qurultoyida Temurning hukmronligi rasman qaror topadi. Manbalarda ta’riflanishicha, qurultoyda avvalgi Chig‘atoy xonligining e’tiborli amirlari, Temurning yoshlikdagi quroldoshlari

va uning sobiq dushmanlari hozir bo‘lgan edilar.

Ular orasida Amir Shayx Muhammad Bayon sulduz, Amir O‘ljaoytu,

Amir Kayxisrov huttaloni, Amir Dovud dug‘lot, Amir Sorbug‘o jaloyir,

Amir Joku barlos, Amir Zinda Chashm va boshqa yetakchi arboblari bor edi.

Xerman Vamberining ta’riflashicha, Temur qadimgi turk odatiga binoan oq kigiz ustiga o‘tqazilib, yuqori ko‘tariladi. Temurning piri Sayyid Baraka duoyi fotiha qilgach, u Movarounnahrning egasi - amiri deb e’lon qilinadi.

Movarounnahrning yagona hukmdori bo‘lib olgach, Temur o‘z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Avvalambor bu davrda Temurga mustahkam poytaxt - bebosh mahalliy hukmdorlarning hujumlariga qarshi tura oladigan bir qarorgoh zarur edi. Shu maqsadda u 1370- yilda



Samarqandga keladi. Bu yerda u shahar devorlari, qal'alar va saroylar bino qilishga kirishadi.

Bu imoratlar Samarqand mug'ullar tomonidan vayron etilgandan keyin

150 yil o'tgach birinchi marta bunyod qilingan umumjumhuriy inshootlar edi. So'ngra u holdan toygan mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etadi. To'g'ri, deyarli bir asrlik boshboshdoqlik hukm surgan mamlakatda qonunlar joriy etib, tartib o'rnatish oson ish emas edi. Uni oz-ozdan amalga oshirish mumkin edi. Shuning uchun ham Temur o'ziga mustahkam tayanch barpo etish maqsadida barlos qabilasidan maxsus harbiy qism tashkil qiladi. Chunki bunday ishonchli harbiy kuch uning siyosiy kurashlari uchun zarur edi. Shuning uchun ham u bu harbiy qismga va barlos qabilasiga katta imtiyozlar beradi.

Tashqaridan qaraganda Temur qonunlarni joriy etish bilan band ko'rinsa-da, lekin o'z davlati chsgaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Avval

u Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni, shuningdek, Farg'ona va Shoshni birlashtirib, ularni o'ziga bo'ysundiradi.

Ammo Mug'iliston tomonidan bo'ladigan xavf hali tamoman sindirilmagan edi. Temur davlati uchun Jo'ji ulusida qad ko'targan Oltin O'rda nihoyatda xavfli edi. Temur saltanati bilan Oltin O'rda xonligi oralig'ida bu davrga kelib mustaqil bo'lib olgan Xorazm yerlaridan Qo'ng'iro't so'filarining davlati qaror topgan edi. Qadimdan iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan Movarounnahr bilan yaqindan aloqada bo'lgan Xorazm mug'ullar davrida ikki qismga bo'linib, markazi Urganch shahri bo'lgan Shimoliy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat qal'asi bo'lgan Janubiy Xorazm Chig'atoy ulusiga qaragan. XIV asrning 60- yillari oxirida Oltin O'rdada yuz bergan g'alayonlar vaqtida Qo'ng'iro't so'filari Shimoliy Xorazmda yangi sulolaning mustaqil hukmronligini tiklab oladilar. So'ngra Kat va Xiva shaharlarini bosib olib, Shimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm yerlarini birlashtiradilar. Temur butun Xorazmni Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblar edi. Shuning uchun u Xorazmni bosib olish siyosatini tutdi. 1372- yilda Temur Xorazmga hujum qildi. Biroq xorazmliklar mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar-da, Temurga qarshi bir necha bor bosh ko'tardilar. Shuning uchun ham Temur Xorazmga besh marta yurish qilishga majbur bo'ldi. Nihoyat 1388- yilda u Xorazmni butunlay qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi. Uning oxirgi yurishi oqibatida Urganch shahri vayron etilib, shahar aholisi esa Samarqandga ko'chiriladi.

Shunday qilib, Temur Movarounnahr va Xorazmda feodal tarqoqligiga va o'zaro nizolarga zarba berib, Sirdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufida birlashtirdi. Bu shubhasiz, Movarounnahr xalqlari taqdirida ijobiy ahamiyat kasb etdi. Ammo



Temurning harakati bu bilan cheklanmadi. U tez orada qo'shni davlatlar va xalklar ustiga yurish qilib, ularni o'z davlati hududiga birlashtirish va markazlashgan ulkan saltanat barpo etishni oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Temur davlati va uning hukmdorlik davri zamondoshlarining e'tiborinigina o'ziga jalb etib qolmay, balki jahon siyosiy doiralarda yuz bergan barcha voqealarga ham ta'sir ko'rsatdi. Bunday voqelik Temurning G'arbgga tomon „etti yillik“ yurishlari davrida (1399-1404- yillar) qudratli usmonli turklari imperiyasiga qarshi urush boshlashga qadar qilgan vaqtdan boshlab yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Yaqin Sharqda sodir bo'lgan murakkab siyosiy vaziyat buni jiddiy taqozo qilardi. Ma'lumki, bu davrda bir tomondan harbiy qudrati tobora oshib borayotgan Turkiyaning Bolqon yarim oroli davlatlariga nisbatan tazyiqi kuchayib, butun Yevropani xavf ostiga solayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu qudratli davlatning o'zi G'arbgga tomon shiddat bilan bosib kelayotgan raqib - Temur davlatining kuchli tazyig'iga duchor bo'lgan edi.

Shunday qilib, Kichik Osiyoda ikki istilochining - o'sha vaqtda o'z harbiy qudrati jihatidan eng yuksalgan Temur bilan G'arbiy Yevropaga dahshat solib turgan Boyazidning manfaatlari duch keladi. Bunday siyosiy vaziyatda Turkiyaga qarshi vujudga kelgan dushman kuchlarining ma'lum darajada birlashuvi tabiiy edi. Avvalambor, Boyaziddan yengilib, o'z yer va mulklaridan mahrum bo'lgan Kichik Osiyo mamlakatlarining amirlari Temurdan madad istab, uning Qorabog'dagi o'rdugohiga borib qaror topadilar. Hatto Vizantiya va G'alatadagi Genuya hokimining noibi, Fransiya qiroli, hamda Sultoniya shahrining katolik missionerlari yordam so'rab Temurga murojaat qiladilar. Turkiya sultoni Boyazidga birlashib zarba berish maqsadida Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi noibi Ioann VII Paleolog va Genuyaning Peradagi (Konstantinopol atrofidagi mavze) hokimi Trapezund imperatori Manuil III vositasida Temurni Turkiyaga qarshi yurish boshlashga undaydilar. Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida unga yordam berish, hamda Konstantinopol va Peraning Boyazidga to'lab kelgan bojini bundan buyon Temurga to'lashga va'da qiladilar. Bunday taklif shubhasiz, Temurga juda maqbul tushadi. Shunday qilib, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Turkiya sultoni Boyazidga zarba berish uchun qulay siyosiy vaziyat vujudga keladi. Bu vaziyatdan Temur ustalik bilan foydalanadi.

Bu davrda Temur Boyazid bilan o'zaro diplomatik yozishmalar olib borish bilan bir qatorda, Turkiya bilan bo'lajak to'qnashuvda Trapezund va Konstantinopolning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Genuya va Venesiyaga sovg'a-salomlar hamda maktublar bilan



arxiepiskop Ioann Galonifontibus boshchiligida elchilar yuboradi. O‘zaro yordam masalasida Temur Konstantinopol noibi Ioann VII Paleolog bilan ham yozishmalar olib boradi. Temurning 1402- yil 15 may kuni Ioann VII Paleolog nomiga yo‘llagan xatining mazmuniga qaraganda, Konstantinopol imperatori

va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashda Temurga xizmat qilish, hatto unga "odamlar va har qaysisi 20 tadan 40 tagacha harbiy kemalar bilan" yordam berish kabi majburiyatni o‘z zimmalariga oladilar. Buni Ispaniya elchisi Klavixo ham o‘z kundalik daftarida qayd qilib o‘tadi.

Bu davrda Temur Fransiya koroli Karl VI (1360-1422), Angliya qirolu Genrix IV (1399-1413) va Kastiliya hamda Leon qirolu Genrix III Trastamara (1390-1407)lar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatib, yozishmalar olib boradi. Bu davlatlar orasida Fransiya Vizantiya taqdiriga befarq qaray olmas edi. Shu boisdan Fransiya fuqarolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulklarini, ayniqsa G‘alataidagi mustamlakalarini himoya qilish uchun Karl VI o‘z navbatida Temurdan madad kutar va u bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga urinar edi. Temur va Karl VI yozishmalarida qayd etilishicha, sohibqiron qirolni jiddiy qo‘llab-quvvatlaydi.

Shunday qilib, Temurning Kichik Osiyo va G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan olib borgan dastlabki diplomatik yozishmalari va elchilik aloqalari uning G‘arbiy Turkiya ustiga yurishi munosabati bilan boshlanib, ulardan asosan Boyazidga qarshi birgalikda kurashish rejaları ko‘zda tutiladi. Biroq Anqara yaqinida turklarning ikki yuz minglik qo‘shini ustidan qozonilgan buyuk g‘alabadan so‘ng Temurning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan bo‘lgan aloqalarining mazmuni tubdan o‘zgaradi. Endilikda u ular bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlash, elchilik va o‘zaro savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘yish kabi masalalarga ahamiyat beradi. Vizantiya imperatoridan boj olib, uni bilvosita bo‘ysundirish bilan kifoyalangan Temur 1402- yil yozida Fransiya

va Angliyaga maxsus elchilik yuboradi.

Elchilikka zamonasining mohir diplomati Arxiepiskop Ioann Galonifontibus boshchilik qiladi. Ioann orqali Temur Karl VI va Genrix IV nomlariga maxsus maktublar yo‘lladi. Elchilar Parijga 1403- yil mayda yetib boradilar. Bu yerda Ioann tantanali vaziyatda Temurning Turkiya ustidan qozongan g‘alabasi, Sulton Boyazidning asirga olingani, turklar asir olgan xristianlarning ozod qilingani to‘g‘risida xabar berar ekan, ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlari olib borilishini ta‘minlash va agar qirol hamda gersoglar rozi bo‘lsalar, bu erkin savdoni tegishli bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashni taklif etadi. Buning uchun avvalambor muntazam o‘zaro elchilik aloqalarining barqarorligi lozim edi. Shuning uchun ham Temur 1402- yil avgustda Fransiya





qiroli Karl VI ga yoʻllagan maktubida bu haqda quyidagilarni alohida taʼkidlaydi: "Bundan keyin sizning (odamlaringiz) bizning yerlarimizga va bizning (kishilarimiz) sizning oʻlkangizga oʻtgan ajdodlarimiz davridagidek borib-kelib tursalar, sizning va bizning nomimizni hamma joyda olqishlab tursalar, mamlakatimiz savdogarlari uchun foyda keltirishsa, koʻp xursand boʻlar edik. Shuni ham aytish kerakki, endilikda bizning yurtimizda savdogarlaringizning xavfsizligi taʼminlanadi". Fransiya qiroli Karl VIning

1403- yil 15- iyunida Temurga yoʻllagan javob maktubidan maʼlum boʻlishicha, Temur takliflari Fransiya tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilingan.

Demak, Temurning Anqara jangidan keyin fransuz qiroli bilan olib borgan yozishmalari, oʻzaro savdo shartnomasi tuzishga qaratilgan diplomatik yozishma boʻlib, bunda Vatikan vakili Arxiepiskop Ioann Galonifontibus muhim rol oʻynagan. Chunki unga fransuz qiroli Karl VI ning javob xatini Temurga yetkazishdek masʼuliyat yuklangan edi.

Temur davlati bilan Angliya oʻrtasida oʻzaro diplomatik aloqalar oʻrnatilishida ham Vatikan vakilining vositachilik roli katta boʻldi. Xuddi shu davrda u bu buyuk davlatning gʻarbiy viloyatlari hokimi Mironshoh (1366-1408) bilan Angliya koroli Genrix IV oʻrtasida olib borilgan diplomatik yozishmalarda, ayniqsa faol qatnashdi. 1393- yilda Shimoliy Eron, Iroq, Tabriz va Sultoniyani oʻz ichiga olgan xulogular tasarrufidagi mulklarga hokim qilib tayin etilgan Mironshoh Temurning keksayib qolgan davrida Gʻarbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-eʼtiborini oʻziga jalb etadi. Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan oʻzaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida xristian ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini taʼminlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shu sababli Gʻarbda Mironshoh tez orada "katolik dinining homiysi sifatida" shuhrat qozonadi.

Temur, Mironshoh va Genrix IVlarning oʻzaro diplomatik yozishmalaridan maʼlum boʻlishicha, Angliya bilan elchilik aloqalarini oʻrnatib, savdo-sotiqni jonlantirish yoʻlida olib borilgan harakatlarda, ayniqsa Mironshohning tashabbusi katta boʻlgan. Bu tabiiy hol boʻlib, buyuk Temur imperiyasining Gʻarbiy davlatlar bilan olib borgan aloqalari - xoh u elchilar qatnovi, xoh savdo karvonlari boʻlmasin, dastavval Mironshoh tasarrufidagi oʻlkalar orqali oʻtar edi. Bundan avvalo ushbu viloyatlarning noibi manfaatdor edi. Chunki Mironshoh qoʻl ostidagi mulklarning gʻarbiy chegaralari Yevropaning Bolqon yarim oroli orqali Oʻrta Yer dengizi mamlakatlari bilan tutashgan edi. Angliya qiroli 1403 yilning oʻrtalarida Temur va Mironshohga yoʻllagan javob maktublarida ular bilan shartnoma tuzish istagini izhor etadi va shu maqsadda Angliyaning ahvoli hamda shart-



sharoitlaridan yaxshi xabardor bo'lgan Arxiyepiskop Ioanni vakil qilib tayinlab, unga to'la ishonch bildiradi. Angliya qiroli Genrix IV 1403- yil 15- iyunda Temurga yozgan javob maktubida "o'zaro aloqalarimiz doirasini kengaytirish, davlatlarimiz savdogarlarining bir-birlari bilan ilgari, ajdodlarimiz davrida bo'lganidek uchrashib turishlarini ta'minlash niyatidamiz" deb ta'kidlagan edi.

Misr va Turkiya sultonlari ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng Temur G'arbiy Yevropada yanada keng shuhrat qozondi. Yevropa mustabidlarining Sharqqa bo'lgan azaliy qiziqishi va intilishi yanada kuchaydi. Ayniqsa Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III Sharq bilan juda ham qiziqib qolgan edi. U Temurning Turkiya sultoni Boyazidga qarshi olib borgan shiddatli jangu jadallarini diqqat bilan kuzatib boradi.

1402- yilning bahorida Payo de Sotomayor va Ernan Sanches Palasuelos boshchiligida dastlab Ispaniya elchilari Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilarga Temur va Boyazidlarning kuch-qudrati, boyligi va armiyasining adadini bilish hamda ular qo'l ostida yashayotgan xalqlarning urf-odatlarini dini va qonunlari haqida aniq ma'lumotlar to'plash topshiriladi. G'alaba munosabati bilan tashrif buyurgan Sharq va G'arbning ko'pgina davlatlari elchilari qatorida Ispaniya elchilari ham Temur tomonidan qabul qilinib, qirol nomiga yozilgan maxsus maktub va in'omlar bilan kuzatiladi. Ularga qo'shib Temur Muhammadqozi ismli o'z vakilini ham Ispaniyaga elchi qilib yuboradi. Bunga javoban Genrix III o'zaro do'stlik munosabatlarini mustahkamlash maqsadida 1403- yilda Temur huzurida ikkinchi marta maxsus elchilik yuboradi. Unga Rui Gonzales de Klavixo boshliq qilib tayinlanadi. 1403- yil 21- mayda Ispaniyadan jo'nab ketgan elchilar dengiz orqali Konstantinopolga o'tib, u yerdan Trapezundga, bu yerdan quruqlik orqali Eronni kesib o'tib Balxga yetib kelishadi. Bu shahar yaqinida Amudaryodan kechib o'tib, avval Termiz va Kesh shaharlarida bo'lishadi, so'ngra Samarqandga tashrif buyurishadi. Ispaniya elchilari Samarqandda Temur tomonidan tantanavor qabul qilinib, ularga katta e'tibor va zo'r hurmat ko'rsatiladi. Temurning Samarqand va uning atrofida bino qildirgan hashamatli saroy

va bog'larida o'tkazilgan rasmiy qabul va tantanali marosimlarda Ispaniya elchilari Xitoy, Hindiston, Rum, Zobuliston, Iroq, Shom, Misr, Oltin O'rda, Saqlab (Rusiya) kabi Sharq va G'arbning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan elchilarning barchasidan ham yuqoriroqqa o'tqazilib, ularga alohida e'tibor beriladi. Rasmiy qabul vaqtida Ispaniya elchilari "Xitoy podshosining elchisidan pastroqda o'tirganini ko'rib qolgan Temur, - deb yozgan edi bu haqda Klavixo o'z kundaligida,- ularga to'rga, Xitoy elchisini esa pastroqqa o'tqazishni buyurdi". O'rta asr diplomatiyasida bunday rasmiyatchilikka alohida e'tibor berilgan.



Chunki rasmiy qabul va tantanali marosimlarda elchilar uchun belgilangan maxsus joylar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning ramziy darajasini ko'rsatar edi.

Klavixo boshliq Ispaniya elchilari 1404- yilning sentyabr-noyabr oylarida Samarqandda bo'ladilar. Temurning Xitoyga tomon yurishi munosabati bilan boshqa ko'pgina davlatlarning elchilari bilan bir qatorda Ispaniya elchilari ham 1404- yilning 21- noyabrida Samarqanddan jo'natib yuboriladi. Klavixo Ispaniyaga 1406- yilning mart oyida qaytib keladi. Oradan bir oy o'tgach, Klavixo Samarqand safarida bo'lgan Ispaniya elchiligi haqidagi axborotni yozib Kastiliya qiroli Genrix IIIga topshiradi. Keyinchalik uning bu axborotnomasi "Buyuk Temur tarixi" va "Temur qarorgohi Samarqandga safarot kundaligi" nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi. Temur vafotidan so'ng mamlakatda boshlangan siyosiy boshboshdoqlik va uning bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib ketishi oqibatida G'arbiy Yevropa davlatlari bilan Temurning o'rnatgan bevosita savdo

va elchilik aloqalari asta-sekin susayib, keyinchalik esa butunlay uziladi. Bu, shubhasiz, O'rta Osiyoning G'arbiy Yevropa va unda shakllanayotgan jahon tashqi bozoridan ajralib, O'rta Osiyoliklarning dunyo xalqlarining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotidan chetda qolishining boshlanishi edi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur deyarli butun Osiyo mintaqasida 40 yil davomida olib borgan siyosati davrida o'zini mohir davlat arbobi sifatida namoyon eta olgan tarixiy shaxsdir. Uning adolatga yo'g'rilgan davlatni idora etish borasidagi mahorati esa, nafaqat yurtimiz tarixchilarinig, balki xorijiy mamlakatlar olimlarining ham e'tiborini hanuzgacha o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bu esa, fuqarolramizda buyuk ajdodimiz shon-shavkatini ko'z o'ngimizda yana bir qadar yuksaltiradi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. Asarlar, 4 - jild. - T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Amir Temur - faxrimiz, g'ururimiz. Asarlar, 5 - jild. - T.: O'zbekiston, 1997.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. - T.: Sharq, 2000. -B. 151 - 234.
4. S.A. Vdovina Amir Temur v mirovoy istorii. Izd.: "Shark" - Toshkent, 1996.
5. S.A. Akramov Buyuk o'zbek olimi Ulug'bek. - T.: 1961.
6. B.Ahmedov Ulug'bek. - T.: Kamalak, 1994.



7. B.Ahmedov Tarixdan saboqlar. - T.: O'qituvchi, 1994. - B.105-130; 299-316; 316-328.
8. B.Ahmedov Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy siyosiy faoliyati). - T.: 1996.
9. H.Vamberi Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. - T.: G'ofur G'ulom, 1990.
10. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2 - jildlik. - T.: Mehnat, 1992.
11. Lyus'en Keren. Amir Temur saltanati. - T.: Ma'naviyat, 1999.
12. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001.
13. Mustaqillik: Izohli ilmiy - ommabop lug'at. - T.: Sharq, 2006.
14. A. Muhammadjonov Temur va temuriylar davri. - T.: Fan, 1996.
15. A.Sagdullaev va boshqa. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism. - T.: Akademiya, 2000. - B. 128 - 145.
16. Temur tuzuklari. Forschadan A.Sog'unuy va H.Karomatov tarjimasi. - T.: 1996.
17. Q.Usmonov, M.Sodiqov, N.Oblomurodov O'zbekiston tarixi. I qism. O'quv qo'llanma. - T.: 2002. - B. 171 - 193.
18. M.Xolbekov Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari. - Samarqand: 1996.
19. O'zbekiston tarixi (Qisqacha ma'lumotnoma). - T.: Sharq, 2000. - B. 87 - 111.
20. O'zbekiston tarixi / R.Murtazaeva umumiy tahriri ostida. -T.: Yangi asr avlodi, 2003. -B. 268 - 298.
21. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1,2,3 ... - 12 jildlar.
22. Sharofiddin Yazdiy. Zafarnoma. - T.: Sharq, 1997.
23. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. - T.: 2006. - B.164-185.
24. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K.1 / Mas'ul muharrir: A. Sagdullayev. - T.: Sharq, 2010. - B. 338-485.



THE QUESTION OF THE INTERPROPORTIONALITY OF VERBAL AND  
VISUAL COMPONENTS IN MODERN CHILDREN'S LITERATURE: A  
PRAGMALINGUISTIC ANALYSIS

*Fergana state university*

*Candidate of historical sciences, associate professor*

**Sulaymanov Kurbon**

*Fergana state university 1st year graduate student*

**Khudoberganova Sevarakhan Ilhomjonovna**

**Abstract:** *The article depicts the peculiarities of the ratio between verbal and visual components in modern books for kids. The article reviews some book types where the visual content prevails (wimmelbilderbuch, picturebooks, «bookturepics», etc.). Resting upon the researchers' works, the author points out the complementary and contrapuntal strategies of word and picture interaction in illustrated books. The functions of illustrations are singled out: it can provide visual accompaniment to words, help the imagination to comprehend the plot of the book, supplement the verbal artistic reality; it can also be involved in plot development and changing the narrative of the words; illustration can set a multimodal and two-address character of the book. The loose connection between verbal and visual components sometimes performs an important function of defamiliarization withdrawing both the visual and the verbal out of the automatism of perception. The article underlines the potential of books where the visual content dominates when working over the speech development, especially with children who study Russian as a foreign language.*

**Keywords:** *children's books; pictures; verbal components; visual components; books for children.*

**Аннотация:** *В статье рассматриваются особенности соотношения вербального и визуального компонентов в современных книгах для детей, обзорно представлены некоторые типы книг для детей с преобладанием визуальной составляющей (виммельбухи, «книжки в картинках», «картинки в рассказах» и др.). Опираясь на работы исследователей, автор статьи указывает на «комплементарную» и «контрапунктную» стратегии взаимодействия слова и рисунка в иллюстрированных книгах. Обозначаются функции иллюстраций: они могут обеспечивать визуальное сопровождение слов, оказывать помощь воображению при восприятии книги, дополнять словесную художественную реальность, а также вовлекаться в развитие сюжета, менять повествовательную направленность слов, придавать книге*



мультимодальный и двуадресный характер. Книги, в которых визуальный и вербальный компоненты свободно соотнесены, порой выполняют важную функцию остранения, выводя и визуальное, и вербальное из автоматизма восприятия. В статье также подчеркивается потенциал книг с доминантой визуального компонента при работе над развитием речи, в том числе с детьми, изучающими русский язык как иностранный.

**Ключевые слова:** детская литература; книжные иллюстрации; вербальные компоненты; визуальные компоненты, книги для детей.

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy bolalar kitoblarida og'zaki va vizual komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik xususiyatlari muhokama qilinadi, vizual komponent ustunlik qiladigan bolalar uchun kitoblarning ayrim turlari haqida umumiy ma'lumot berilgan (Wimmelbuch, "rasmli kitoblar", "hikoyalardagi rasmlar"). , va boshqalar.). Tadqiqotchilarning ishlariga asoslanib, maqola muallifi tasvirlangan kitoblarda so'z va rasmning o'zaro ta'siri uchun "bir-birini to'ldiruvchi" va "qarama nuqta" strategiyalariga ishora qiladi. Tasvirlarning vazifalari ko'rsatilgan: ular so'zlarga vizual qo'shilish imkonini beradi, kitobni idrok etishda tasavvurga yordam beradi, og'zaki badiiy voqelikni to'ldiradi, shuningdek syujetni rivojlantirishda ishtirok etadi, so'zlarning bayon yo'nalishini o'zgartiradi, beradi. kitob multimodal va ikki manzilli xarakterga ega. Vizual va og'zaki komponentlar erkin o'zaro bog'liq bo'lgan kitoblar ba'zan idrok etishning avtomatikligidan vizual va og'zakilikni keltirib chiqaradigan muhim chetlanish funksiyasini bajaradi. Maqolada, shuningdek, nutqni rivojlantirish ustida ishlashda, shu jumladan rus tilini chet tili sifatida o'rganayotgan bolalar bilan ishlashda vizual komponent ustun bo'lgan kitoblarning imkoniyatlari ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** bolalar adabiyoti; kitob rasmlari; og'zaki komponentlar; vizual komponentlar, bolalar uchun kitoblar.

## INTRODUCTION

In Russia, the history of illustrated books for children began with the printing in 1694 of the "Primer" by Karion Istomin: the pages of the book were decorated with numerous images - people, animals, plants and household items. For a long time, publications intended for children (including magazines) were organized according to the same principle: they were dominated by text, pictures were often printed on separate pages, and there were few color images. Over time (and the development of technology), the structure of a children's book and a children's magazine gradually changed: the practice of illustrators from different countries ingeniously revised the possibilities in the ratio of verbal and visual



components. In addition, it turned out that the visual range can be remarkably diverse - in the twentieth century, it began to include not only the author's drawings, but also adapted to illustrate photographs, postcards, newspapers, magazine clippings and more. The range of functions that an illustration can perform has also expanded. Of course, in most cases in a children's book, an illustration provides a visual accompaniment to words, plays the role of a hint, assists the imagination in perceiving the book, “complements” the verbal artistic reality and increases the time of contact with the book. Such a traditional “complementary” approach to book illustrations (criticized, for example, by Hansen-Löwe [Hansen-Löwe 2016: 57–77]) has not exhausted its potential and is unlikely to ever exhaust it. In addition to many other books for children, for example, modern alphabets are based on it, which should help the child get acquainted with the alphabet, establish a connection between letters and words, between letters, words and the world around them.

Among the new illustrated alphabets, one can note the books of Daria Gerasimova: “The ABC of Transformations” and “ABC. A game of words” that complement each other well. In the ABC of Transformations, each letter is visually transformed into something - into an object, a person or a fairy-tale creature. The transformations are accompanied by verses (also by D. Gerasimova). In The Game of Words, each letter is dedicated to a full spread with detailed illustrations and a poem that plays on the letter. The book is intended for children who are already familiar with the alphabet, it develops vocabulary, offers options for a simple language game (selecting words for one letter, and then making sentences from them) and provokes independent experiments with words. The “Mythological ABC” by Igor Zhukov contains mythological and fairy-tale characters: heroes of fairy tales and legends of different peoples (among them are the Serpent Gorynych, the Dragon, Chimeras, Medusa Gorgon, Basilisk and many others). The reader of this alphabet is not a small child preparing to get acquainted with the alphabet, but an amateur child and even a connoisseur of fairy tales who can appreciate the author’s humor, understand that they are playing a literary game with him: under the guise of an alphabet, they offer a dictionary of mythological creatures. The playful tone of the book is also indicated by the illustrations of Maria Yakushina - her dragons and Gorynychy are not scary at all, and the “multi-color” and the character moving from picture to picture, similar to a jester, introduce an element of theatrical or circus performance, which seems to be unfolding on the pages of the book. Modern there are so many books for children that are built on the principle of “consent” of verbal and visual that it is almost impossible to systematize and describe them. Let's focus on more



complex variants of the relationship between verbal and visual, namely, on cases where a) the verbal component is practically excluded, b) words and pictures "exchange" functions; c) verbal and visual codes can contradict each other, conflict, create so-called "multimodal" texts [Salisbury, Styles 2012: 77].

### LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

In relation to the latter, Maria Nikolaeva and Carol Scott use the term "counterpoint", meaning that words and pictures tell different stories or somehow "oppose" each other, offer alternative information, which sometimes leads to conflicting interpretations. [Nikolajeva, Scott 2001]. *Wimmelbuchs* (peeping books) *Wimmelbuchs* are "wordless books". The German term "wimmeln" can be translated as "swarm", and the name of this type of book already suggests "an abundance of characters", a large amount of visual material, but also a certain "degree of disorder and chaos" [Rémi 2010: 117]. *Wimmelbuchs*, as already noted, have very little or no text at all, so they do not impose a plot on the reader (you can come up with one yourself and discuss the development of each of the stories). *Wimmelbuchs* are not at all new, this type of book has been used for many years for training memory and attention, speech skills. Thematic *wimmelbuchs* not only develop vocabulary, but also introduce children to phenomena and facts that were previously unknown. The absence of text makes such books practically international (perhaps that is why there are not so many Russian *Wimmelbuchs* proper). Of the small number of peering books published in Russia, *Wimmelbuchs* dedicated to individual cities can be useful for students of the Russian language and culture. In such books as, for example, "Moscow" by A. Khramtsov, children themselves can lay "excursion paths", think over routes and gradually enrich them with details (historical and cultural information) that children are able to find on their own in other sources or on the Internet. According to the developed "book routes", you can arrange quests or come up with adventure games. Picture books (stories in pictures) are the name for books in which the visual code acts as the basis for the narrative (and in most cases does not require verbal support).

In the history of Russian children's literature, picture books are associated primarily with "Stories in Pictures" by Nikolai Radlov and the magazine "Funny Pictures" (published since 1956). "Stories in Pictures" by N. Radlov was first published in 1937 and was built on the principle of a comic book: Radlov built small (usually funny) stories from a sequential arrangement of frames. For the first edition, short comments on the pictures were written by D. Kharms, N. Gernet and N. Dilaktorskaya; later, for ideological reasons, the captions were removed, but Radlov's funny pictures did not lose their narrative clarity. An illustrated book as a "multimodal" text. Books in which the visual series becomes





an important narrative component, but at the same time does not exclude a complex relationship with the word, include some “books of artists” or joint projects of writers and artists. Among the verbal-visual units, in which words and illustrations together create a special narrative rhythm, are the fairy tale books by writer Alexander Blinov and artist Olga Zolotukhina “The Mole Who Dreamed of Seeing the Sun” and “The Puddle that Became the Sun”. The tales of A. Blinov are allegorical stories about the search for oneself and faith in a dream. In both books, the image of the sun becomes a key image - close to both children and adults, it is the sun that is most often associated with goodness, light, warmth. "The Mole..." is a story about a mole who, contrary to all the laws of nature, I decided to see the sun no matter what. He first interrogates all his relatives, finding out what the sun looks like, but they cannot help him, because moles, as you know, crawl out of their holes only at night. The mole asks questions to a familiar owl and a horse friend, but none of them is able to explain what the sun is. A. Blinov's tale is rich even without illustrations (it has a plot, there is humor, elements of a language game that may be of interest to children), but it is precisely thanks to the illustrations that it turns into a small parable: the visual series "spreads the plot" and greatly enhances the aesthetic effect of books. One of the key motifs of the fairy tale, which explains its attachment to the visual (longing for the visual), is the lack of words, the insufficiency of words to explain what seems to be generally understood (In response to the question "What is the sun?", The owl “goggled its round eyes and spread its wings: — SUCH... LIKE HAPPINESS...” [Blinov 2016:18]). little color and light).

## RESULTS AND DISCUSSION

Bright colors appear gradually: the more the main character talks to different animals and learns about the world, the more color the artist uses. At the end of the tale, the Mole waits for the sunrise and not only does not die (as his relatives promise him), but also sees how diverse and beautiful the world is. The happiness of seeing in a new way (in a different way) is explained in the book with the help of color, the visual is involved in the development of the plot, a kind of “blockade of the word” is removed by multicolor, which is associated with the sun (brightness of colors, mobility, iridescence, beauty). In the fairy tale "Puddle, which became the Sun, a large flowing puddle turns into Polkan the Dog, then into the Cat Musya, then into the Black Crow, and then becomes a hot sun, although this requires her to disappear. The second fairy tale by A. Blinov is also illustrated by O. Zolotukhina, and, in addition to the expressiveness of color, it also involves the expressiveness of form. On a verbal and visual level, the book is full of metamorphosis; as in the case of "The Mole ...", it is characterized by a



combination of a fun game and parable. In both books, visuals become an important resource for storytelling, illustrations can change the narrative direction of words, they are involved in the development of the plot along with the word. The conventionality of lines and figures (the animals are drawn extremely simply and very recognizably) suits the perception of children and at the same time corresponds to the universality of fairy tales about how to find your dream. An interesting version of the interaction between words and pictures is offered in the book “Lucky Chance” by the Belarusian artist Anna Silivonchik.

Silivonchik created a visual-verbal shifter — she calls it “pictures in stories.” Here, neither the verbal nor the visual becomes an illustration / explanation for each other. The word in this case performs not even an auxiliary function, but an additional one, plays the role of a frame that can be changed at will (or completely removed, turned off). Thus, the story that gave the name to the entire book (“Lucky Chance”) was written for a picture depicting a family and natural idyll: a rural house with a garden, parents and babies in cabbage. The general atmosphere is an atmosphere of comfort, familiarity, well-being, which, nevertheless, does not exclude a slight irony. The story written by the author has something in common with the picture only conditionally: a general (a little anecdotal) tone, characters (man, woman) and an ending, in which well-being is also (as a result of a happy coincidence). However, the plot of the story is not tightly tied to the picture, it is only a possible sketch - and each reader (child or adult) can come up with his own story, one way or another adjoining to the picture. It is in the free correlation of verbal and visual that the developing potential of “pictures in stories” is seen. They provide a variety of opportunities: they allow you to increase your “watchfulness”, teach you to pay attention to color, texture, work with line, and composition. The pictures put together rhyme, threads are stretched between them, forming plots. In addition, Silivonchik's paintings are not the simplest, you need to peer into them, take into account the artist's inherent craving for metamorphoses, however, the strange visual range (and the artistic world as a whole) performs an important function of estrangement, because it removes both the visual and the verbal from the automatic perception. "Pictures in stories" is based on the use of a difficult form, the need to look at the picture, read the story and think about how the verbal "frame" is in contact (and is it in contact?) with the image. Such texts, in which the verbal component can lead in one direction (offer one plot), and the visual component in the other, require an active viewer / reader.

The predominance of the visual component in "pictures in stories" can be effectively used for the development of speech. So, children can be offered tasks of



